

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
URGANCH FILIALI**

HIMOYAGA RUXSAT ETILDI
Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri
_____ Reyimberganov A.
(imzo)
“ _____ ” _____ 2015 y.

ADAMOV ELSHOD IBRAGIM O'G'LI

**MAXALLA FUQAROLAR YIG'INLARI AXBOROT TIZIMINI MIJOZ-
SERVER TEXNOLOGIYASI ASOSIDA LOYIXALASH VA DASTURINI
YARATISH**
mavzusidagi

5330200 – “Informatika va AT” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalvr akademik
darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____
(imzo)

Adamov E.

Rahbar _____
(imzo)

Djumanazarov O.

Maslahatchi _____
(imzo)

Allaberganova D

Taqrizchi _____
(imzo)

Djumaniyazov A

Urganch – 2015 y.

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. TIZIMLI TAHLIL QILISH VA MASALANING QO'YILISHI

- 1.1. Axborot tizimlari
- 1.2. Mahalla fuqarolar yig'inlari va ular AKTni joriy qilish istiqbollari.....
- 1.3. Mahalla fuqarolari uchun ishlab chiqilgan axborot tizimlari taxlili.....
- 1.4. Masalaning qo'yilishi.....

II BOB. MAXALLA FUQAROLAR YIG'INLARI AXBOROT TIZIMINI YARATISH.

- 2.1. Klient-server texnologiyasi va uning ishlash prinsipi.....
- 2.2. HTML, JavaScript, CSS klient tomonidan dasturlash tillari sifatida..
- 2.3. PHP – Server tomonidan dasturlash tili.....
- 2.4 MySQL – veb ishlanmalar uchun optimal MBBT sifatida.....

III BOB MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

- 3.1. Ergonomika tushunchasi.....
- 3.2. Ergonomika elementlari va ish joyini tashkil etish.....
- 3.3 Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda xavfsizlik asoslari.....

XULOSA

FOYDALANILGAN

ADABIYOTLAR.....

ILOVA.....

Kirish

Yurtimiz ishlab chiqarish soxalarini axborotlashtirish, jamiyati rivojlanishining obyektiv jarayoni shu bilan birga zaruriy hisoblangan axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va taqdim etishning tabiiy davomidir. Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot, aloqa, tibbiyot, ta'lim va biznes sohalaridagi mehnat sifati, mehnat unumdorligi va samaradorlik darajasini rivojlantirish ularda tadbqiq qilinayotgan eng zamonaviy axborot-komuunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq. Axborotlashtirish – mehnat sifatini, yashash sharoitlarini tubdan o'zgartirish uchun yetarli bo'lgan va jamiyatning barcha a'zolarini axborot bilan ta'minlash darajasini qo'llab-quvvatlovchi axborot vositalari hamda texnologiyalarini yaratish, rivojlantirish va umumqo'llash jarayonidir. Axborotlashtirishning zarurati axborotning qiymati va rolining keskis oshishi bilan izohlnadi. Axborot jamiyati axborotlarni saqlash, uzatish, jamlash, yaratish va qayta ishlash bo'yicha inson faoliyatini o'z ichiga olgan yuqori darajada rivojlangan axborot muhiti bilan tavsiflanadi.

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi natijasida barcha soxalarga kirib bordi. Hozirda xar bir sohada foydalanilayotgan ma'lumotlar, hisobotlarni axborot texnologik resurslardan foydalanish orqali ish samaradorligi oshirilmoqda.

Kompyuter yordamida ish yuritishda samarali va yangi omillaridan biri avtomatlashtirilgan ish o'rinlari hisoblanadi. Xozirgi kunda yaratilayotgan avtomatlashtirilgan ish o'rinlarida mutaxassisning ishiga doir axborotlar, ko'rsatmalar tushunarli va ixcham ko'rinishda ekranda berib boriladi.

Mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ham yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimda to'laonli sheriklik o'rnini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish imkoniyatlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligini oshishida qanday rol o'ynashiga bog'liq. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: “Bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan foydalanish, ayniqsa, muhim axamiyatga ega. Bunga erishish XXI

asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”.

XXI asr oxirida insoniyat jamiyatining rivojlanish manbai deb tan olingan axborotsiz hech qanday ishlab chiqarish rivojlanmaydi. Bugungi kunda insoniyat axborot texnologiyalari sohasida yuqori natijalarga erishdi. Bu kompyuterlar hamda kompyuter tizimlari, local va global tarmoqlar, Internet tarmog'i, multimedia texnologiyasi va boshqalardir. Informatika inson faoliyatining barcha sohalariga kirib bordi. Oxirgi yillarda axborot keng talan qilinadigan va qimmat mahsulotga aylandi, “axborot xizmati” tushunchasi insoniyat faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan butun bir ishlab chiqarishni aniqladi.

Mutaxassis yetarli darajada o'z vazifalarini bajarish uchun axborotga ishlov berishda qo'llaniladigan anjom va usullar zarur. Xuddi shu masala axborotga ishlov berish bilan bog'liq sohafa ham ko'zga tashlanmoqda: nazariy jihatdan inson har qanday axborotni kompyutersiz qayta ishlashi mumkin, ammo informatikada mavjud bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsa, buni samaraliroq bajaradi.

Ishning dolzarbligi: Mahalla fuqarolar yig'ini avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish masalasini hal qilish ancha murakkab ob'ektlar qatorida turadi. Undagi axborot almashish jarayoni o'zining tinimsizligi, hisobga olinishi kerak bo'lgan parametrlar, ulardan olinadigan ma'lumotlar va o'zaro bog'lanishlarning ko'pligi bilan tavsiflanadi. Bunday ob'ektni kompleks avtomatlashtirish, unda ilg'or texnika va texnologiyadan, EHM hamda avtomatlashtirish sistemalaridan foydalanish asosida mavjud bo'ladi. Shundagina odam mehnati yangicha tashkil qilingan, mehnat madaniyati yuqori pog'onaga ko'tarilgan bo'lishi mumkin.

Ishdan maqsad: Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, xozirgi kunda ko'plab sohalar kabi mahalla fuqarolar muassasalarining ish faoliyatini avtomatlashtirilgan tizimlar zarurligini qoplashga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi quyidagilardan iborat, kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat.

1 – bobda Axborot tizimlar hamda bu tizimlarning mahalla fuqarolar yigini

muasasalari uchun muhim jihatlari ko'rib chiqilgan.

2 - bobda Avtomatlashtirilgan tizimni tuzishda foydalanilgan tillar PHP, Java Script, MySQL va HTML tillari bilan tanishib chiqilgan xamda avtomatlashitirilgan tizimining tuzilishi, tizimda ishlatilgan modullar va tizimdan foydalanish usullari ko'rib chiqilgan.

3 - bobda Kompyuter sinflarga qo'yilgan ergonomic talablar, kompyuter bilan ishlashda texnika bilan tanishib chiqildi.

I BOB. TIZIMLI TAHLIL QILISH VA MASALANING QO'YILISHI

1.1 Axborot tizimlari

Axborot - ijtimoiy, iqtisodiy tabiiy fanlarning, tafakkur ilmining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bilim va ma'lumotlar, kishilarning amaliy faoliyati davomida to'plagan tajribalari majmui demakdir. Inson axborot oqimi ichra yashar ekan, turli-tuman voqea, xodisalar va jarayonlarning bir - biriga aloqadorligini, o'zaro munosabati mohiyatini tahlil etish, mushohada va mulohaza qilib ko'rish maqsadida ko'pdan ko'p dalil va raqamlarga murojaat qiladi. Axborot tufayli nazariy bilimlar amaliyot bilan birlashadi.

Axborot resurslarini oqilona tashkil etish va foydalanishda ular mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda axborot — bu boshqa barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda ularni asrab-avaylashga ko'maklashuvchi yagona resurs turidir.

XXI asrga kelib insoniyat tarixida ilk bor sanoati rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida axborot ish quroliga aylandi. Moddiy ishlab chiqarish sohasidan mehnat resurslarining og'ishmay axborot sohasiga o'tib borishi tendentsiyasi tobora yaqqol sezilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ishlab chiqarish sur'ati o'sishi va rivojlanishi jarayonida qarorlar qabul qilish hamda boshqarish uchun zarur bo'lgan axborot hajmi oshib bormoqda. Bu o'sish avvalo, iqtisodiy, texnik, ilmiy, texnologik va ijtimoiy tizimlar va jarayonlarda namoyon bo'lmoqda.

Axborot hajmining ortishi va uni qayta ishlash vositalarining rivojlanmaganligi insonning u to'g'risida ta'savvurga ega bo'lishi va ulardan foydalanishini qiyinlashtiradi. Ko'plab vaqt axborotni qidirishga, ajratishga va foydalanishga ketadi. Axborot fondlari har bir insonga xizmat qilishi uchun yangi, zamonaviy vositalar kerak bo'ladi. SHuning uchun XX asr o'rtalariga kelib axborotni ishlash sohasida ko'p odamlar shug'ullana boshladi. Axborot bilimlar manbai sifatida jamiyat uchun strategik resursga aylandi. Bu resurslardan samarali foydalanish esa jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bilan bog'liq.

Axborotlashtirish jarayoni deganda - inson faoliyatining muxim yo'nalishlarida olingan bilimlardan samarali foydalanish uchun ko'rilgan kopleks chora-tadbirlar tushuniladi.

Zamonaviy va samarali echimlar topish uchun ko'plab, struktura jihatidan murakkab axborot tizimi yaratilmoqda, natijada, axborotlashtirish jarayonida ishtirok etuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Bu jamiyat va moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ko'plab mablag'larini shu sohaga jalb qilishga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida insonlarni axborot resurslaridan ratsional foydalanish yo'llarini qidirishga majbur qilmoqda. Zamonaviy sharoitda yangi axborot oqimi qanchalik tez ko'paysa shu bilan birga ularning eskirish muddatlari ham tezlashmoqda, bu o'z navbatida, axborotni tanlash, unga erishish qiyinchiliklarini keltirib chiqarmoqda.

Har bir injener, xizmatchi, rahbar o'z faoliyati davomida ko'plab qog'ozlarga bitilgan axborotni tahlil qilishiga to'g'ri keladi. Bu esa axborotga erishish uchun ko'plab vaqt sarflashga to'g'ri kelib, ishni tashkil qilish unumdorligiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday muammolarni samarali echish jamiyatni axborotlashtirish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Jamiyatni axborotlashtirish - yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy- iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonidir .

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni quyidagi qator muammolarni hal etilishini talab etadi:

1. Hisoblash texnika vositalarini jamiyat faoliyatining barcha tarmoqlariga tadbiq qilish.

2. Jamiyat a'zolarini hisoblash texnikasi vositalaridan samarali foydalanishga o'rgatish.

3. Jamiyat a'zolarining turli xil ehtiyojlarini qondirishda axborot resurslaridan to'la va samarali foydalanishlarini ta'minlash.

Axborotlashgan jamiyat - ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa

uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatidir.

Axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- axborot iqtisodiyotining rivojlanishi;
- axborot tangligini bartaraf etish;
- axborot texnologiyasining globalligiga erishish;
- turli axborot resurslariga erkin kirib borilishi;
- axborot resurslarining ustunligini ta'minlash;
- yangi axborot texnikasi va texnologiyalarini keng qo'llash;
- boshqaruv faoliyatida axborotdan samarali foydalanish.

Axborotlashgan jamiyatda inson axborot bilan ishlash bo'yicha ma'lum darajadagi axborot madaniyatiga ega bo'lishi zarur. Buning uchun shaxsni axborotni tez qabul qilish va katta hajmini qayta ishlash, zamonaviy vositalar, usullar va texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash lozim.

Axborot madaniyati deganda - jamiyat a'zolarining axborotdan maqsadli foydalanish, axborotni qayta ishlash va uzatish, zamonaviy texnik-tashkiliy vositalardan va usullaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi tushuniladi.

Axborotlashgan jamiyat quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- texnik qurilmalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'z faoliyatida kompyuter, axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- turli manbalardan axborotni olishni bilish va undan samarali foydalanish;
- axborotni tahliliy qayta ishlash asoslarini egallash;
- o'z faoliyatiga taalluqli axborotni bilish va u bilan ishlashni uddalash.

Axborot tanqisligi bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv xatolari juda qimmatga tushadi. Ayni paytda, boshqaruv va ishlab chiqarish samaradorligi, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va foydalanish bo'yicha eng ko'p axborotga ega bo'lgan tizim yutib chiqmoqda.

Axborot intellektual faoliyatning muhim mahsuloti sanaladi. Sanoati

rivojlangan barcha mamlakatlarda ushbu mahsulotlarni o'z foydalanuvchilariga etkazishning «usullari va vositalari» ni ishlab chiqish hamda joriy etish jadal sur'atlarda olib borilmoqdaki, bu axborot tizimlari va texnologiyalari sanoatini yaratishda o'z aksini topgan.

Axborot texnologiyasi - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar majmui.

Axborot texnologiyalari industriyasining yuzaga kelishi ularning axborot jamiyatini yaratishni qanday ta'minlashiga bog'liq. Axborot texnologiyalari industriyasi axborot mahsulotlari va vositalarini ishlab chiqaradi hamda iste'molchilarga etkazadi.

Axborot mahsulotlari deganda avvalo, an'naviy yo'l bilan yoki elektron texnika yordamida olingan turli bilimlar sohasi, shuningdek ma'lumot va axborotning boshqa shakllari tushuniladi.

Hozirgi kunda nafaqat ta'lim sohasiga, balki milliy iqtisodning barcha tarmoqlariga: tijorat, biznes va boshqalarga zamonaviy axborot texnologiyalari keng ko'lamda kirib kelmoqda.

Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarining hayotimiz barcha jabhalariga kirib kelishi biznes va ta'limni yo'lga qo'yish mexanizmlarini tubdan o'zgartirib bormoqda. SHuni ta'kidlash kerakki, jahon iqtisodiyotining globallashib borayotganida Internet orqali ta'lim xizmatlarini taklif etish borasida mehnat bozorining hajmi cheksizdir.

O'zbekistonda yuzaga kelgan vaziyat iqtisodiyotning rivojlanishini intensiv yo'lga o'tkazishni, resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanishni, ishlab chiqarishga tobora takomillashgan mehnat qurollarini joriy etishni juda ham muhim vazifa qilib qo'ymoqda.

Bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar tarmoqlarini, ma'lumotlar uzatishni, Internet xizmatlariga kirib borishni va zamonaviylashtirish respublikamizda ustuvor o'rinlarga chiqmoqda. Iqtidorli yoshlar ishtirokida respublikada Internet - festivallar,

Internet - forumlar o'tkazish odat bo'lib qoldi, shaharlar va qishloqlarda Internet tarmog'idan jamoa bo'lib foydalanish punktlarining soni tabora ko'paymoqda, axborot xizmatlari turlari sezilarli darajada kengaymoqda, ularning xizmatlari yanada intellektualroq bo'lib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov 2001 yil may oyida Oliy Majlisning V sessiyasida so'zlagan nutqida kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini ishlab chiqarishga, maktablar va oliy o'quv yurtlarining dasturlariga, odamlarning kundalik turmushiga joriy etish bo'yicha O'zbekistonning yuksak darajalarga erishishi yuzasidan aniq vazifalarni qo'ydi.

Jamiyatni kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalarini rivojlan-tirish bo'yicha vazifalarni hal etish uchun 2002 yil 30 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida» gi Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi axborotlashtirishning milliy tizmlari barpo etilishini, iqtisodiyotga va jamiyatning har bir a'zosi hayotiga kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari ommaviy joriy etilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi, jahon bozorida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi.

«Tizim» tushunchasi keng tarqalgan va juda ko'plab ma'nolarda qo'llaniladi. Axborot tizimlariga nisbatan qo'llanilganda aksariyat hollarda texnik vositalar va dasturlar to'plami nazarda tutiladi. Kompyuterning faqat apparat qismini tizim deb atash mumkin. Muayyan amaliy vazifalarni bajarish uchun hujjatlarni yuritish va hisob-kitoblarni boshqarish jarayonlari bilan to'ldirilgan ko'plab dasturlarni ham tizim deb hisoblash mumkin.

Har bir tizim to'rt asosiy qismdan iborat:

- kiritish;
- ishlov berish;
- chiqarish;
- teskari aloqa.

Kiritish

Ishlov berish

Chiqarish



Teskari aloqa

Axborot tizimining maqsadi - muayyan professional faoliyat bilan bog'liq bo'lgan professional axborot ishlab chiqarish. Axborot tizimlari har qanday sohadagi vazifalarni hal qilish jarayonida zarur bo'ladigan axborotni to'plash, saqlash, ishlov berish, chiqarib berishni ta'minlaydi.

Axborot tizimi - qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida axborotni to'plash, saqlash, ishlov berish va chiqarishda foydalaniladigan vositalar, usullar va xodimlarning o'zaro bog'liq majmui.


Bugungi kundagi zamonaviy axborot tizimi tushunchasi axborotga ishlov berishning asosiy texnik vositasi sifatida shaxsiy kompyuterlardan foydalanishni ko'zda tutadi. Yirik tashkilotlarda shaxsiy kompyuterlar bilan bir qatorda axborot tizimining texnik bazasi tarkibiga meynfreym yoki super elektron hisoblash mashinalari kirishi mumkin. Bundan tashqari, agar ishlab chiqarilayotgan axborot foydalanuvchisi bo'lgan va usiz bu axborotni olish va taqdim etish mumkin bo'lmagan odamning roli hisobga olinmas ekan, axborot tizimi texnikaviy timsolining o'zi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmay qoladi.

Axborot-mantiqiy tizimlar boshqa tizimlardan farqli o'laroq ilgari bevosita shaklda tizimga kiritilmagan, balki tizimdagi mavjud axborot massivlarini mantiqiy tahlil qilish, umumlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash asosida ishlab chiqiladigan axborotni bera oladi. Bunday tizimlar muayyan darajada mutaxassis-tadqiqotchi mehnatining o'rnini bosib, ilmiy-tadqiqot masalalarini hal qilishi mumkin. Ularni ba'zan intellektual tizimlar deb ataydilar, chunki ularni ishlab chiqishda sun'iy intellekt nazariyasi qoidalaridan foydalaniladi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari

Har qanday avtomatlashtirilgan axborot tizimlari (AAT) tashqi muhit qurshovida

ishlaydi, u AAT uchun kiritiladigan axborot manbai va chiqadigan axborotning iste'molchisi hisoblanadi. Axborot oqimi AAT doirasida, tizimga kirishdan boshlab undan chiqishgacha ishlov berishning bir nechta bosqichidan o'tadi. Axborotga ishlov berishning eng yirik bosqichi axborotni to'plash, ro'yxatga olish va dastlabki ishlov berish, aloqa kanali bo'yicha manbadan kompyuterga uzatish, mashina eltuvchilariga o'tqazish, axborot fondlarini yaratish va saqlab turish, mashina ichida ishlov berish va chiqariladigan shaklga keltirish, aloqa kanali bo'yicha kompyuterdan foydalanuvchiga uzatish, foydalanuvchi qabul qilishi uchun yaroqli shaklga o'zgartirishdan iborat.



Ishlov berishning alohida bosqichlari tegishli AAT kichik tizimlari orqali amalga oshiriladi, ular ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: kiritiladigan axborotni to'plash va dastlabki ishlov berish, aloqa, axborotni kompyuterga kiritish, axborotni saqlash va ishlov berish, axborotni chiqarish va uni aks ettirish (chiqarish kichik tizimi). AAT ning namunaviy tuzilishi yuqoridagi rasmda keltirilgan.

Axborotni to'plash va dastlabki ishlov berish kichik tizimi axborotga dastlabki ishlov berish bo'yicha bir qator operatsiyalarni bajaradi. Bu kichik tizim doirasida ob'ektlar to'g'risida ob'ekt uchun tabiiy bo'lgan shaklda, ya'ni tabiiy tilning so'zlari va simvollari, umumqabul qilingan sanoq tizimi raqamlarida taqdim etilgan dastlabki axborotni (masalan, kadrlarni hisobga olish bo'yicha varaqa mazmuni, bemorni tibbiy tekshirish natijalari, maqolalarning matnlari, tovar-transport yukxatlari mazmuni va hokazo) to'plash amalga oshiriladi.

Maxsus tekshiruvlar natijasida axborot tizimining axborot fondida hali mavjud bo'lmagan ma'lumotlar tanlab olinadi. Bu bilan tizimda axborot takrorlanishining oldi olinadi. Dastlabki axborotning tizimga keyin kiritilishi zarur bo'lgan elementlariga dastlabki ishlov beriladi, ya'ni tizimda qabul qilingan muayyan shaklga va formatga keltiriladi: maxsus blankalarga yoziladi, belgilangan shakldagi jadvallarga kiritiladi, hujjatli axborot uchun muayyan qoidalar bo'yicha annotatsiya va bibliografik bayoni tuziladi, fizik parametrlari birliklarning yagona tizimiga keltiriladi. Dastlabki ishlov berishdan o'tgan va muayyan tarzda shaklga keltirilgan axborot eltuvchilarda, aksariyat hollarda, qog'ozda qayd etiladi.

Axborotga ishlov berish kichik tizimi adabiyotlarda ko'p hollarda ma'lumotlarga ishlov berishning avtomatlashtirilgan tizimi (MIAT) deb ataladi, bunda «ma'lumotlar» tushunchasi «axborot» tushunchasi bilan sinonim deb hisoblanadi.

Axborotni chiqarib berish va tasvirlash kichik tizimi (chiqarish tizimi) berilgan so'rovga javobni chiqarib berishni ta'minlaydi, bunda uni foydalanuvchi qabul qilishi uchun qulay shaklda taqdim etadi. Kichik tizim tarkibiga chiqarib beriladigan xabarning zaruriy shaklini ta'minlab beradigan dasturlar majmui va chiqarib berilayotgan axborot qayd etiladigan (aks etadigan) texnik vositalar kiradi. So'rovga javob bosish qurilmasi, displey, grafik tuzgich, turli tablo va indikatorlar yordamida chiqarib berilishi mumkin.

Kichik tizimlarning o'zaro aloqasi axborot manbalari va foydalanuvchilar

hudud jihatdan markaziy kompyuter yaqinida joylashgan, degan nuqtai nazardan kelib chiqib bayon etildi. Mavjud axborot tizimlarida axborot manbalari va (yoki) foydalanuvchilar aksariyat hollarda markaziy kompyuterdan yuz metrdan yuzlab kilometrgacha bo'lgan masofada joylashgan bo'ladi. Bunday hollarda markaziy kompyuter bilan aloqa tarkibiga ma'lumotlarni uzatish kanali va uzoqda joylashgan terminallar (ular hozir o'zi kompyuter hisoblanadi) kiradigan kichik aloqa tizimi orqali amalga oshiriladi.

Uzoqlashgan terminallarni - shaxsiy kompyuterlarni ulash uchun aloqa kanallaridan foydalaniladi, ular telefon tarmoqlari, umumfoydalaniladigan ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari va ma'lumotlarni uzatishning maxsus tarmoqlaridan iboratdir. Kanal belgilangan yo'nalishda va zaruriy tezlikda ma'lumotlar bilan almashinishni ta'minlashi zarur. Ma'lumotlarni uzatish kanallari ma'lumotlarni faqat bir yo'nalishda uzatishni ta'minlaydigan - simpleks; ma'lumotlarni har ikki yo'nalishda, lekin vaqtning har bir momentida faqat bir yo'nalishda uzatishni ta'minlaydigan - yarimdupleks; bir vaqtning o'zida har ikki yo'nalishda ma'lumot uzatishni ta'minlaydigan dupleks kanallarga bo'linadi.

1.2 Mahalla fuqarolar yig'inlari va ularda AKTni joriy qilish istiqbollari

2015 yilning 4 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to'g'risida" farmoni imzoladi.

Farmonda davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, "elektron hukumat" tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tatbiq etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil qilish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilab berilgan:

- axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasida, "elektron hukumat"ni joriy etishda yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, axborot texnologiyalarini rivojlantirishning jahon darajasidan kelib chiqqan holda milliy axborot-kommunikatsiya tizimini tatbiq etish va rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish, shu jumladan, Internet tarmog'iga keng polosali ulanishni kengaytirish, telefon aloqasi, televidenie va radioeshittirishning raqamli tizimlariga to'liq o'tishni ta'minlash, aloqa va telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni, shuningdek, radiochastotali spektrdan foydalanishni davlat yo'li bilan boshqarish, listenziyalash va nazorat qilish borasidagi funktsiyalarni amalga oshirish;
- "elektron hukumat"ni tatbiq etish, vazirliklar, idoralar, kompaniyalar va uyushmalarning, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborotlashtirish

va interaktiv davlat xizmatlarini takomillashtirish borasidagi faoliyatini idoralararo muvofiqlashtirish, monitoring qilish, baholash va nazorat qilish bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, davlat axborot resurslari hamda ma'lumot bazalarini shakllantirish, saqlash va foydalanishning yagona tizimini vujudga keltirish, idoralararo axborot tizimlarini yaratish va boshqarish;

- Internet tarmog'ining milliy segmenti yanada shakllantirilishini ta'minlash, mamlakatimizning turli yo'nalishlardagi zamonaviy veb-resurslarini, shu jumladan, aholining, xususan, yosh avlodning axborotga bo'lgan va intellektual talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadida tarmoq resurslarini rivojlantirish uchun zarur texnik va qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- raqobatdosh dasturiy mahsulotlarning mamlakatimizda ishlab chiqarilishini va ichki bozorini hamda ularga ko'rsatiladigan xizmatlarni rivojlantirishga ko'maklashish va uning muvofiqlashtirilishini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida va iste'molchilarda zamonaviy dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va axborot resurslarini joriy etish;

- zamonaviy kommunikatsiya vositalari sohasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish va tatbiq etish, axborot xavfsizligini ta'minlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqa sohalarida shunday ishlarni tashkil etish;

- aloqa, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, ustuvor loyihalarni amalga oshirish, radiochastotalik spektrdan samarali foydalanish uchun hamda vazirlik faoliyati doirasiga kiruvchi boshqa yo'nalishlar bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

Farmonda belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari vazirliklar, idoralar, kompaniyalar, uyushmalar,

mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Vazirliklar, idoralar, kompaniyalar va uyushmalarning, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha kompleks dasturlarning o'z vaqtida va to'la-to'kis amalga oshirilishi, "elektron hukumat" xizmatlari va axborot tizimlari joriy etilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladilar.

Hujjatda Vazirlar Mahkamasiga ikki hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi qarori loyihasini o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun kiritish vazifasi yuklangan.

Shuningdek, Farmonda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasini tashkil to'g'risida" 2012 yil 16 oktyabrdagi PF-4475-sonli Farmoni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanishi, 4, 5 va 8-bandlari bundan mustasno ekanligi qayd etilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat hokimiyati tizimida axborotlashtirish taraqqiyotiga mas'ul alohida organ tuzilishi va unga tegishli vakolatlarning berilishi keng tarqalgan hamda muvaffaqiyatli amaliyotdir. Bunday tuzilmalar AQSh, Janubiy Koreya, Avstraliya va boshqa ko'plab davlatlarda mavjud bo'lib, samarali faoliyat yuritmoqda. Boisi, axborotlashtirish kompleks hamda ko'p tarmoqli jarayondir. Shunday ekan, davlat sektori, biznes tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlarining axborotlashtirish darajasini oshirish, jamiyat hamda davlat qurilishining barcha sohasiga ilg'or axborot texnologiyalarini keng joriy qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuqoridagi kabi davlat organlari faoliyatining eng asosiy vazifalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov axborot sohasini taraqqiy toptirish, so'z va axborot erkinligini ta'minlashni mamlakatimizda

demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab bergan. Davlatimiz rahbari tomonidan parlamentga, hukumatga, jamoatchilikka qilingan murojaatlarda axborotlashtirishni rivojlantirish muhimligi va ustuvorligi bir necha marta ko'rsatib o'tilgan. Yurtboshimiz xorijiy mamlakatlarga amalga oshiradigan tashriflarida ham mazkur sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada ravnaq toptirish, axborot jabhasiga yangi investitsiyalar hamda ilg'or texnologiyalarni keng jalb etish masalalariga katta e'tibor qaratadi. Buni ana shu tashriflar davomida imzolangan ko'p sonli hujjatlar ham tasdiqlaydi.

Ayni chog'da yurtimizda "elektron hukumat" tizimini shakllantirish yo'nalishida hayotga tatbiq qilinayotgan chora-tadbirlar doirasida ham axborotlashtirishni rivojlantirish masalalari alohida o'rin tutadi. Fuqarolarga davlat interaktiv xizmatlarini keng taqdim etishni nazarda tutuvchi davlat boshqaruvining ushbu konstepstiyasini ro'yobga chiqarish davlatning turli organlariga tegishli axborot tizimlari va resurslaridan birgalikda foydalanishga asoslanadi, hokimiyat vakolatlari va tashkiliy salohiyatini yagona, yaxlit, sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muvaffaqiyatiga mas'ul bo'lgan organda jamlashni talab etadi.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining tashkil etilishi davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari hamda sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, "elektron hukumat" tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tatbiq etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun sharoit yaratadi. Prezident Farmonida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning ro'yobga chiqarilishi axborot sohasidagi davlat siyosati samaradorligini oshiradi, fuqarolarimizning davlat axborot tizimlari va resurslaridan foydalanish sharoitlarini yaxshilash uchun yangi tashkiliy-texnik imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Muxtasar aytganda, Axborot texnologiyalari va kommunikastiyalarini rivojlantirish vazirligi tashkil qilinishi O'zbekistonning chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo'liga sodiqligini, jamiyatning barcha sohasini ravnaq toptirishda jumladan mahalla fuqarolar yig'inlarida zamonaviy axborot texnologiyalari salohiyatidan foydalanishga intilishini namoyon qilib, muhim siyosiy mazmun-mohiyat kasb etadi. Bu tizim fuqaro yig'inida fuqarolar bo'yicha hech qanday qiyinchiliklarsiz, ma'lumotlarni izlash, kiritish, o'zgartirish qabi amallarni tez bajarish mumkin.

Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari fuqarolar yig'iniga tadbiq etish ma'lumotlar markazlashgan xolda boshqarish osonlashtirish, ularni so'rlagan joyga tez yuborilishi, axborotning sifatiga, mehnatning harakteri va sharoitiga ham ijobiy ta'sir etadi.

1.3 Mahalla fuqarolari uchun ishlab chiqilgan axborot tizimlari taxlili

Kompyuter yordamida ish yuritishda samarali va yangi omillaridan biri avtomatlashtirilgan ish o'rinlari hisoblanadi. Xozirgi kunda yaratilayotgan avtomatlashtirilgan ish o'rinlarida mutaxassisning ishiga doir axborotlar, ko'rsatmalar tushunarli va ixcham ko'rinishda ekranda berib boriladi.

Mahalla fuqarolar yig'ini avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish masalasini hal qilish ancha murakkab ob'ektlar qatorida turadi. Muassasa xodimlari fuqarolar haqidagi ma'lumotlar qog'ozdaligi, har safar fuqarolar, xonadonlar ma'lumotlari yig'ilgan jild to'lgach yoki yil ohiridan keyin yangi jild ochilib yangidan ma'lumotlarni kiritishilishi zaruriyati tug'ilmoqda. Bu esa, ma'lumotlar to'liqmaslikka, vaqt o'tishi bilan ma'lumot yo'qolib ketishi ehtimolligi mavjudligi keyinchalik zaruriy fuqaro ma'lumotlari topilmasligi havfi mavjuddir. Undagi axborot almashish jarayoni o'zining tinimsizligi, hisobga olinishi kerak bo'lgan parametrlar, ulardan olinadigan ma'lumotlar va o'zaro bog'lanishlarning ko'pligi bilan tavsiflanadi. Bunday ob'ektni kompleks avtomatlashtirish, unda ilg'or texnika va texnologiyadan, EHM hamda avtomatlashtirish sistemalaridan foydalanish asosida mavjud bo'ladi. Shundagina odam mehnati yangicha tashkil qilingan, mehnat madaniyati yuqori pog'onaga ko'tarilgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda respublikamiz maxalla fuqarolari yig'inlarida qilinayotgan ishlar anchayin rivojlanib bormoqda. Shunga qaramay maxalla fuqarolari yig'inlari kompleks avtomatlashtirish sohasida ancha orqada qolish hamon saqlanib qolmoqda. Ma'lumotlarni yagona bazaga keltirilmaganligi, so'rlagan ma'lumotlarni elektron shaklda va tez olish uchun qulay imkoniyatlar yaratilmagan.

Bunday kamchiliklarni tugatish mahalla fuqarolar yig'inini «kompleks avtomatlashtirish» darajasiga ko'tarish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masaladir.

Mahalla fuqarolar yig'inini avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish orqali biz:

1. Mahalladagi ho'jaliklarni ro'yhatdan o'tkazish, izlash, ular xaqidagi ma'lumotlarni o'zgartirish amallarni bajara olishimiz mumkinligi
2. Mahalladagi ho'jaliklar borasidagi ya'ni manzili, xonalar soni, ho'jalik qayd nomeri, ho'jalik er maydoni, uy baxosi, qurilgan yilidan tortib tomorqa er maydonigacha bo'lgan ma'lumotlarni tizimga kiritish orqali keyinchalik izlash hamda yuqoridagi ma'lumotlar ustida boshqa amallarni amalga oshirish imkoni borligi tufayli vaqt ancha tejaladi.
3. Ho'jaliklarni elektr, suv hamda gaz bilan ta'minlanganligi ifodalash mumkinligidan, kommunal hizmatlarni borasidagi ko'shimcha hisobotlarni yaratish mumkin.
4. Ho'jaliklardagi uy hayvonlari, yirik shoxli qora moldan tortib parrandalar sonini ham ho'jalik borasidagi ma'lumotlar yoniga qiritish mumkin.
5. Bir necha oila ho'jalikda yashashi mumkinligini xisobga olib ho'jalikda yashovchi fuqarolar haqidagi to'la ma'lumotlarni tizimda saqlash, zarur fuqaroni izlash u haqidagi barcha ma'lumotlarni tizim orqali topish mumkin.
6. Oila a'zolari, oila boshlig'i, ular orasidagi o'zaro qarindoshchilik nisbatlarini hisoblashni avtomatlashtirilgan bo'lib, ya'ni oila a'zosini oila boshlig'iga nisbatan qarindoshlikini kiritilsa, oila a'zolarini bir-biriga o'zaro qarindoshlik nisbatini tizim o'zi tahlil qiladi.
7. Oila a'zolaridan kim nafaqada, qaerda o'qiyapti yoki qaerda kim bo'lib ishlayotganligi, hozirda qaerdaligigacha bo'lgan ma'lumotlarni saqlash mumkin.
8. Oila a'zosi uchun ma'lumotnoma kabi hujjatlarni tizim orqali yaratish mumkin. Bunda faqatgina qaysi oila a'zosi va qay muassasa so'rayotganini kiritilsa tizimni o'zi ma'lumotnomani tayyorlab beradi.
9. Mahalla fuqaro yig'inida har bir oila, har bir ho'jalik, bo'yicha haftalik, oylik, chorak hamda yillik hisobotlarni olish mumkin.

1.4 Masala qo'yilishi

Mahalla fuqarolar yig'ini avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish masalasini hal qilish ancha murakkab ob'ektlar qatorida turadi. Muassasa xodimlari fuqarolar haqidagi ma'lumotlar qog'ozdaligi, har safar fuqarolar, xonadonlar ma'lumotlari yig'ilgan jild to'lgach yoki yil ohiridan keyin yangi jild ochilib yangidan ma'lumotlarni kiritishilishi zaruriyati tug'ilmoqda. Bu esa, ma'lumotlar to'liqmaslikka, vaqt o'tishi bilan ma'lumot yo'qolib ketishi ehtimolligi mavjudligi keyinchalik zaruriy fuqaro ma'lumotlari topilmasligi havfi mavjuddir. Ana shu mammlarni bartaraf etish maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini muassasalari uchun avtomatlashtirilgan tizimni klien-server texnologiyasi asosida yaratish masalasi qo'yildi. Bu tizimga quyidagi shartlar qo'yilgan:

1. Fuqarolar haqidagi ma'lumotlarini yagona ma'lumotlar bazasi ostida yig'ilishiga erishilishi.
2. Mahallada mavjud xonadonlar va ularda istiqomat qiluvchi xonadon boshlig'idan tortib oila a'zosi haqidagi ma'lumotlarni saqlanishi, qayta ishlanishi, uzatilish hamda o'chirilish imkoniyatlari mavjud bo'lishi
3. Xo'jalik (uy) haqidagi ma'lumotlarni salqanishga sharoit bo'lishi
4. Mahalla fuqarolar yig'ini muassasalardagi ish faoliyatni maksimal darajada qog'oz ish faoliyatdan raqamli hujjatlashtirishga o'tkazishga erishish va ish faoliyat samaradorligini oshirishga yordam berilishi
5. Fuqarolarning murojaatlarini tizim orqali qisqa vaqt ichida ishlab bera olishlikka ega bo'lishi.
6. Mavjud ma'lumotlar asosida oylik, kvartal hamda yillik hisobotlarni tayyorlanishiga erishilishi

2.1. Klient-server texnologiyasi va uning ishlash prinsipi

Umumiy xolda interaktiv muloqot foydalanuvchi va dastur orasidagi muloqatni ta'minlovchi sistemani taqdim etadi. WWW va interaktivli interfeys

HTML xujjatli ketma–ketligidan iborat. HTML xujjati interfeys qurilish prinsipi bo'yicha shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

- Statik;
- Dinamik;

Birinchi xolatda biror bir matn yoki HTML taxrirlovchisidan iborat. HTML xujjat interfeysining manbasi bo'ladi. Bunga mos joriy xujjat foydalanish maboynda o'zgarmay qoladi. Ikkinchi xolatda esa cgi – modul yordamida tuzilgan HTML xujjat interfeys manbai bo'ladi. Bunga mos foydalanish maboynda interfeysning ko'rinishi o'zgaradi. Shu tariqa WWW uchun interaktiv interfeys tushunchasini bayon qilish mumkin.

WWW uchun interaktiv interfeys o'zida foydalanuvchiga interfeysni taqdim qiluvchi statik va dinamik HTML xujjatlar ketma – ketligini namoyon qiladi.


Amalda klientdan ma'lumotlarni qabul qilish muommasini echuvchi ixtiyoriy masala interfeysning qurilishi bilan bog'lik. Eng qiziqarlisi xar xil MB larga SQL serverga murojaat va periferik qurilmalardan informastiya qabul qilish, klient ishchi o'rinlarni yaratish interfeysini yaratishdir. Bularning barchasi CGI (Common Gateway Interface) vositasi yordamida bajarish mumkin.

CGI (Common Gateway Interface) WWW server bilan tashqi interfeys dasturi standarti hisoblanadi.

Yuqori darajali interfeys qurish masalasi 2 qismga bo'linadi:

Klient qismi;

Server qismi;



2.2. HTML, JavaScript, CSS klient dasturlash tillari sifatida

HTML da yozilgan Web sahifa odatda brauzer deb nomlanuvchi maxsus dastur yordamida quriladi. Bu so'zning o'zbekchaga to'g'ridan – to'g'ri tarjimasida «sharxlovchi dastur» manosi beradi. Brauzerning asosiy vazifasi foydalanuvchi talabiga muvofiq manzilni internetdan topish va qiyinchiliksiz uni tasvirlashdir. Oldiniga brauzer HTML tilida yozilgan «instruksiyani» tahlil qiladi va bu instruksiya yordamida Web sahifada mavjud bo'lgan axborotni tasvirlaydi.

Internet - sayyoramiz miqyosidagi kompyuter tarmoqlarining birlashmasidir. Agar kosmik stanziya a'zolarining E-mail dan foydalanishini inobatga olsak internetning sayyoramiz sarhadlaridan chiqqanini ham ko'rishimiz mumkin.

Butun dunyo o'rgimchak to'ri WWW (World Wide Web) - bu ko'p sonli o'zaro bir-biriga bog'langan hujjatlardir. Web sahifada boshqa Web sahifalar bilan bog'lovchi chekli gipermurojaat bo'ladi. Gipermurojaat mexanizmini bir necha so'z bilan izohlash qiyin, lekin kamida bir marta Web sahifaga kirib ishlagan odam buni darhol tushunadi.

Gipermurojaat butunjahon o'rgimchak to'ridan hujjatning URL deb nomlanuvchi manzilini qidirishda ishlatiladi. Biz bilamizki Web sahifaning asosiy mohiyati axborotni tasvirlash va uni har bir foydalanuvchi uchun ochib berishdir. Bunda bir qancha funktsional cheklanishlar mavjud, ya'ni biz oldindan Web sahifani ko'ruvchining kompyuteri qanday, monitorining imkoniyati qanday va ko'rish oynasining qanday o'lchamda o'rnatilganligini bilmaymiz. Biz hattoki foydalanuvchining qanday operatsion muhitda ishlayotganini ham bilmaymiz.

HTML tilida yozilgan Web sahifa faylida axborotning qanday tasvirlanishi haqidagi yo'l yo'riqlar ketma – ket joylashgan bo'ladi. Bu fayl oddiy matnli fayl bo'lib uni maxsus brauzer dasturlarsiz o'qish qiyin. Grafik rasmlarni esa umumman ko'rib bo'lmaydi chunki uning o'rnida brauzer dasturga biror rasm kerakligini ko'rsatuvchi TEG turadi.

HTML ning konstruksiyasi TEG lar deyiladi. Brauzer TEG larni oddiy matnlardan farqlashi uchun ular burchak qavslarga olinadilar. TEG tasvirlash jarayoni hatti harakatlarining boshlanishini bildiradi. Agar bu harakat butun

hujjatga talluqli bo'lsa, bunday teg o'zining yopiluvchi juftiga ega bo'lmaydi. Juft teglarning ikkinchisi birinchisining harakatini yakunlaydi. Masalan, har bir Web sahifa `<html>` tegi bilan boshlanib `</html>` tegi bilan yopilishi kerak. Etibor bergan bo'lsangiz yopiluvchi teg ochiluvchidan « / » belgisi bilan farq qiladi. Teg nomlari katta yoki kichik harflar bilan yozilishi mumkin, ularni brauzer bir xil qabul qiladi. HTML tilida boshqa kompyuter tillaridagi kabi izoh berish imkoniyati mavjud. Izoh quyidagi «`<- -`» va «`<- ->`» belgilar orsiga yoziladi.

Har qanday Web sahifa ikkita qismdan tashkil topadi. Bular sarlavha qismi va asosiy qism. Sarlavha qismida Web sahifa haqidagi malumot joylashadi, asosiy qismda esa Web sahifaning mazmuni bilan tasvirlanish qoidalari joylashadi. Sarlavha qismi quyidagi ochiluvchi `<head>` va yopiluvchi `</head>` teglari orasida joylashadi. Asosiy qism esa `<body>` va `</body>` teglari orasida joylashadi. Odatda sarlavha qismi oldidan qo'llanilayotgan HTML standartlari haqida malumot yoziladi.

Biz quyida `<body>` tegining parametrlari bilan tanishamiz.

- *Background* - fon sifatida biror bir grafik tasvirdan foydalanish. Parametr qiymati sifatida grafik tasvir joylashgan manzil (URL) beriladi.
- *Text* - tasvirlanayotgan matn rangi.
- *Link* - Web sahifadagi matnli gipermurojat rangi.
- *Vlink*-foydalanuvchi tomonidan oldin murojat qilingan gipermurojaat rangi.
- *Alink* - foydalanuvchi tomonidan tanlangan gipermurojaat rangi.
- *Lang* – Web sahifa matni yozilgan tilni aniqlash.

Web sahifalarda meta ma'lumotlarini hosil qilish uchun `<meta>` tegi ishlatiladi, uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

`<meta name="o'zgaruchi nomi" content="o'zgaruvchi qiymati">`

Meta ma'lumotlar asosan Internet da joylashgan qidirish mashinalari uchun zarur. Qidirish mashinalari Web sahifalar haqidagi ma'lumotlarni qaerdan oladi degan savol paydo bo'ladi. Xuddi shu ma'lumotlarini qidirish mashinalari metao'zgaruvchilardan oladi. (Web sahifa qaysi sohaga tegishli, unda qanday ma'lumotlar borligi) `<meta>` tegida *keymards* va *description* o'zgaruvchisi bor.

Keywords o'zgaruvchili Web sahifadagi kalitli so'zlar ro'yxatini o'zida saqlaydi. *description* o'zgaruvchi esa Web sahifaning qisqacha ma'lumotini o'zida saqlaydi.

HTML tilida har bir qo'llanilgan tegga unikal identifikator berish imkoniyati mavjud. Masalan matn bir necha abzastlardan tashkil topgan bo'lsin. Har bir abzastga mos maxsus nom berish mumkin, keyinchalik HTML tilining qo'shimcha imkoniyatlari yordamida bu abzastlarni boshqarish mumkin, ya'ni ularning birortasini ko'rinmas qilish yoki shrifti rangini o'zgartirish.

HTML hujjatining kodida biz hamisha biror bir bezak ob'ektlarining o'lchamlarini yoki ularning ranglari xususiyatlarini ko'rsatishimizga to'g'ri keladi.

HTML formalar quyidagi boshqariladigan elementlardan foydalanadi:

Tugmalar (*buttons*)

Uchta turdagi tagmalar mavjud:

- Jo'natuvchi tugmalar – bu tugmalar yordamida formalar serverga qayta ishlash uchun jo'natiladi.
- Inkor etuvchi tugmalar – bu tugma bosilsa formaning hamma qiymatlari qaytadan boshlang'ich xolatiga o'rnatiladi.
- Umumiy tugmalar – bunday turdagi tugmani bosganda shu tugmaga bog'langan prostedura ishga tushadi.

Bayroqchalar (*checkboxes*)

Bayroqcha – bu ikkita (tanlangan yoki tanlanmagan) holatga ega bo'ladigan element. Bayroqchalar *input* elementi yordamida hosil qilinadi.

Ulagichlar (*radiobuttons*)

Ulagichlar ham bayroqchalarga o'xshaydi, ammo bitta farqi shundaki hamma elementlari bitta nomga ega bo'ladi va shulardan bittasi tanlanadi. Ulagichlar ham *input* yordamida tashkil qilinadi.

Menyular (*menus*)

Menyu foydalanuvchiga bir nechta variantlardan bir yoki bir nechtasini tanlash imkoniyatini yaratadi. Menyu *select* elementi yordamida *optgroup* va *option* lar bilan birgalikda tashkil qilinadi.

JavaScript -bu interaktiv va dinamik HTML Web sahifa yaratishga

mo'ljallangan dasturlash tili hisoblanadi.

Java Script klient va server tomonidan dasturlash tili bo'lib, u HTML tilining teglarini va Internet brauzer(Microsoft Internet Explorer,Opera,Mozilla, Netscape) oynasini boshqaradi. Bunda brauzerning nimasini boshqaradi degan savol tug'ilishi mumkin. Bu savolga keyingi bo'limlarimizda to'xtalib o'tamiz.

Boshqacha qilib aytganda HTML tili va JavaScript dasturlash tili birgalikda DHTML ni tashkil qiladi. Java Script tili ECMA-262 (Evropa standarti) va ISO-162 62 (Xalqaro standard) standartlari orqali standartlashtirilgan. Java Script nisbatan olganda ob'yektga mo'ljallangan dasturlash tili bo'lib, Internet uchun klient va server tomonida ishlovchi ilovalar (senariylar) yaratiladi.

Java Scriptda yozilgan dastur kodini oldindan kompilyasiya qilish shart emas va qilinmaydi. Faqatgina dastur kodi interpretatsiya qilinadi. Shuning uchun Java Scriptni "interpretatorli til" deb ataladi.

Java Scriptda yozilgan dastur to'g'ridan-to'g'ri HTML formatida saqlanib bajariladi.

HTML fayli yuklangan vaqtda dastur matni brauzer tomonidan interpretatsiya qilinadi va u brauzerda bajariladi. Shuning uchun brauzerni interpretator deb ham nomlash mumkin. Kompilyasiya va interpretatsiya tushunchalariga to'xtalib o'taylik.

Translyatsiya-bu ma'lum bir dasturlash tilida yozilgan dastur matnini (kodi) elektron hisoblash mashina tiliga o'tkazilish jarayoni tushuniladi.Shunday vazifani bajaruvchi maxsus dasturlar translyatorlar deb ataladi.

Translyatsiya ikkiga bo'linadi:

1. Interpretatsiya.
2. Kompilyasiya

Interpretatsiya-bu dastur matnidagi har bir qator buyruqlarini qatorma-qator mashina tiliga o'girilish jarayoni.

Kompilyasiya-bu dastur matnidagi har bir qator buyruqlarini mashina tiliga o'tkazishi bilan birgalikda ularning ketma-ketligini ta'minlash va sturktura

bo'yicha mashina tiliga o'tkazilish jarayonidir.

Scriptning asosiy imkoniyatlari quyidagilar:

- HTML hujjatning ko'rinishini dinamik boshqarish.
- Internet brauzer ishini boshqarish.
- Foydalanuvchi bilan interaktiv muloqotni o'rnatish imkoniyati.
- Matematik hisoblashlarni bajarish.

Java Script bilan tizim(OS) o'rtasida hech qanday fizik yoki dasturiy vositalar mavjud emas. Natijada Java Script tilining kamchiliklari paydo bo'ladi.

Java Scriptning asosiy kamchiliklari:

- Printer va boshqa qurilmalardan komp'yuter va local tarmoqda foydalanib bo'lmaydi.
- HTML bilan bevosita birgalikda ishlaydi.
- Tizimli fayllarni yaratishda imkoniyatining kamligi.
- Ko'p oqimlilik hisoblashlarni tashkillashtirish mumkin emas.

Java Script tili asosan Java va C++ dasturlash tillarining imkoniyatlaridan foydalangan.

HTML faylida ikkita oraliq teg <SCRIPT>.. </SCRIPT> teglari ishlatiladi.

Masalan:

```
<SCRIPT language="javascript" src="java.js">...</SCRIPT>
```

Konteynerdagi language qaysi tilda yozilganligini ko'rsatadi. Odatda bu shart emas. Undan tahsqri Internet Explorer VBScriptni ham qo'llab quvatlaydi va bunda language-VBScript ko'rsatiladi.

Demak, language parametri yordamida uning qaysi dasturlash tilida tuzilganligini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

<SCRIPT>...</SCRIPT> juft teg asosan <HEAD> va <BODY> seksiyalarida ishlatilishi mumkin.

<HEAD> seksiyada aralash funksiyalar, bunda o'zgaruvchilar va massivlarning boshlang'ich qiymatlarini o'zlashtiradi.

<BODY> seksiyasida esa document.write() operatoridan tashkil topgan dastur fragmentiga ruxsat beriladi.

“javascript:” manzili (gipermatnli ko’rinish)

matn

Masalan quyidagi konstruksiyani ko’raylik :

SALOM

Bunda gipermatn “SALOM” ustiga sichqoncha kursori olib borib bosilgan vaqtda alert(„SALOM’) funsiyasi ishga tushadi. Java Scriptni ishlatishni bunday usuli Gipermatnli uzatkich usuli deyiladi. Odatda bunday usuladan foydalanish qulaylik tug’diradi.

Hodisalarni qayta ishlovchi bo’lim Java Scriptning asosiy qismini tashkil etadi. Bu asosiy qismdan ko’piroq Web dasturchilar foydalanadilar.

Hodisalarni qayta ishlovchi qismda biz ko’proq bevosita HTML teglari bilan ishlaymiz. Bunda <FORM> elementlari bizga yordam beradi. Undan tashqari Java Scriptda hodisalar turkumi mavjud bo’lib, ular Down, Press, Up va Interaktiv jarayonlarni amalga oshirishimizga yordam beradi. Hodisalarni bajarishni tugma elementiga yoki gipermatn uzatkichiga biriktirish mumkin. Quyida button elementiga biriktirilgan hodisani qanday bajarilishini ko’rish mumkin:

<FORM>

<INPUT type=”button” value=”Hodisa” onClick=”alert(Salom JavaScript)”>

</FORM>

Bunda onClick hodisalarni qayta ishlovchisidan foydalaniladi. onClick->EventHandler

GIPERMATN UZATKICHGA BIRIKTIRILGAN HODISALAR

<A HREF=”#examble_2” onMouseOver=”aler(„onmouseover!’); return true”
onClick=”alert(‘click!’); return true ”>Gipermatn

Yuqorida ikki xil hodisalarni qayta ishlovchisi ko’rsatilgan.

onMouseOver-sichqoncha ko’rsatkichini gipermatn ustiga olib borilishi bilan amalga oshadi. onClick-sichqonchani bosish bilan.

JAVA SCRIPTDA JARAYONLAR:

- onClick: sichqonchani bosgan vaqt;
- onMouseOver: sichqoncha ko'rsatkichini yo'naltirgan payt;
- onMouseOut: sichqoncha ko'rsatkichini tashqariga olgan payt;
- onLoad: HTML hujjati ishga tushgan payt, ya'ni oyna ochilganda;
- onUnload: HTML hujjati ishni yakunlagan payt, ya'ni oyna yopilganda;
- onBlur: sichqoncha ko'rsatkichi oyna yoki freymdan tashqarida bo'lishi;
- onChange: kontent o'zgargan payt;
- onDragDrop: ob'ektni dragdrop qilgan payt;
- onFocus: sichqoncha ko'rsatkichini oyna yoki freymda ushlagan payt;
- onKeyDown: ishchi tugmani bosib turgan payt;
- onKeyPress: ishchi tugmani bosgan payt;
- onKeyUp: ishchi tugmani bosib qo'yib yuborgan payt;
- onMouseDown: sichqonchani tugmasi bosilgan payt;
- onMouseMove: sichqoncha ko'rsatkichini qimirlatgan payt;
- onMouseUp: sichqonchani bosib qo'yib yoborgandan keyingi payt;
- onSubmit: submit bo'lgan payt;
- onSelect: tanlangan payt.

Barcha dasturlash tillarida izoh juda zarur bo'ladi. Chunki dasturni tekshirish va har bitta qatorini analiz qilish, uni tushuna olish qulay bo'ladi.

Interpretator JavaScript dasturida(<SCRIPT>...</SCRIPT> teglari orasida) uchta turdagi izoh mavjud:

Java Script dasturlash tilida $i=3$ ko'rinishdagi operatorlarda i -o'zgaruvchi 3 sonini o'zlashtiradi. O'zgaruvchilarga son yoki bosh harfi raqam bilan boshlanuvchi nom berib bo'lmaydi. Internet brauzerning yangi versiyalarida o'zgaruvchining nomi sifatida "\$" belgisini ishlatish mumkin. Variable(O'zgaruvchi).

O'zgaruvchilarni yozgan vaqtda harflarning katta-kichikligiga e'tibor beriladi. Ularning farqi bor.

Yana shuni aytib o'tish kerakki, Java Scriptda o'zgaruvchilarni e'lon qilishda hech qanday toifa ko'rsatilmaydi. Shuning uchun uning toifasi avtomatik ravishda string deb olinadi. Agar bizga son qiymat kerak bo'lsa, biz uni maxsus

funksiyalar yordamida son qiymatiga aylantirishimiz mumkin.

Ko'p hollarda o'zgaruvchilarni e'lon qilishda var xizmatchi so'zidan foydalaniladi. Lekin var xizmatchi so'zini har doim ham ishlatish talab qilinmaydi. Ko'plab Web dasturchilar funksiyaning ichki qismida, ya'ni lokal o'zgaruvchi sifatida har bir o'zgaruvchini e'lon qilishda var xizmatchi so'zidan foydalanishadi. Yana shuni aytib o'tish kerakki, Java Script kodidagi har bir qator ";" belgisi bilan yakunlanadi yoki bu belgini qo'ymasa ham bo'ladi.

E'lon (declaration) :

var nom=birinchi qiymat(value)

Masalan: var x1=4.4, x2="5"; //to'g'ri var 1x=4.4; // noto'g'ri

Operatorlar

Matematik operatorlar: +, -, *, /, %

Munosabatli operatorlar: >, >=, <, <=, =, ==, !=

Mantiqiy operatorlar: ! (inkor), && (va), || (yoki)

Yoqorida ko'rsatilgan operatorlarning barchasi C++,Java va C# dasturlash tillarida ishlatiladi. **Funksiya**- bu maxsus yozuv bo'lib bu yozuvda dastur qismi joylashgan va dasturning ixtiyoriy qismidan turib uni chaqira olish mumkin,yani prosedura deb ataluvchi qism dasturga o'xshash blokdir. Java Scriptda funksiya yagona nomga ega. U bir yoki yoki bir necha parametrlarni qabul qiladi va natijalarni qaytaradi. Java Scriptda funksiya foydalanishdan maqsad dasturdagi ba'zi bir qismlar takrorlanuvchan bo'ladi. Ana shu takrorlanuvchi qismlarni qayta-qayta yozish natijasida dasturning hajmi ortib ketadi va uning ishlash tezligi kamayadi. Undan tashqari Java Scriptda barcha jarayonlar funksiya tanasi ichida bajariladi. Dasturning ixtiyoriy joyidan turib uning nomi orqali chaqiriladi. Demak qism dastur funksiyada joylashgan bo'lib, u funksiya tanasi deb ataladi.

Funksiyani e'lon qilishda function operatoridan foydalaniladi: function {funksiya nomi}([argumentlar ro'xati])

Funksiya:

- Maxsus faoliyat(activity) yoki maqsad uchun.
- Bir paytni o'zida ko'p ishlarni bajaradi.
- Funksiyani e'lon qilish.

```
function nom(parm1, parm2)
```

```
{
```

Java Script kodi

```
}
```

- Funksiyani chaqirish.
- Event Handler orqali HTML ichida funksiya chaqirish:
 - Event Handler="funksiya nomi (parmlning value)";
- Java script ichida funksiyaning chaqirish

STANDART FUNKSIYALAR

-eval;

-escape;

-unescape;

-parseInt;

-parseFloat

Yuqoridagi funksiyalarni ishlatish uchun quyidagi ob'ektlardan foydalaniladi:

Math-matematik funksiyalarni qo'llash uchun kerak bo'ladigan ob'ekt.

String-Qatorlarni qayta ishlash ob'ekti.

Window-Muloqot(dialog) oynasini ochish ob'ekti.

CSS – bu stillar bilan ishlay oladigan kaskadli stillar majmuasidir. Web sahifalarga har xil stillar berish uchun ishlatiladi. HTML xujjat ichida teglar bilan birga foydalaniladi. CSS kodlarini kompilyastiya qilish uchun qandaydir kompilyatorlar, qandaydir dasturlar, va bu kod tushuna oladigan qandaydir redaktorlar kerak bo'lmaydi. Bu kodlarni HTML singari web brauzerning o'zi kompilyastiya qiladi va natijani chiqarib beradi.

Bu stillar jadvali(CSS) to'liq holatda 1997 yilda tashkil topib, "WWW Consortium" da qo'llab quvvatlangan va foydalanishga taqdim etilgan. O'sha paytlarda HTML ning 3 versiyasi ommabop edi. CSS ni dastlab Netscape Navigator 4.0 va Internet Explorer 4.0 brouzerlarida ko'rish mumkin bo'lgan. Hozirda barcha brouzerlar css da yozilgan kodlarni tushuna oladi. Bu stillarga oid dasturlash tilini o'rganish sodda bo'lib, yangi stillar qo'shilishi natijasida kengayib bormoqda.

Web sahifada ishlatiladigan CSS kodlari orqali hosil qilinadigan stillarni hammasini bitta faylga yozib, uni serverda saqlaymiz. So'ng, sahifadan, serverdagi saqlab qo'yilgan faylga murojaat qilib, kerakli stilni olamiz. Bu usul katta hajmdagi web sahifalar yaratishda foydali hisoblanadi. Faylga murojaat, <head> Bu yerda css kodlar joylashtiriladi </head>teglari ichida amalga oshiriladi va quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

```
<link rel=STYLESHEET type="text/css" href="URL" />
```

<link> tegi sahifa biror faylga murojaatni amalga oshirmoqda degani, **REL** – fayl qandaydir stillardan iborat degani, **TYPE** - stillar css kodlaridan iborat va fayl joylashgan manzil yoziladi.

CSS kodlar veb sahifa ichidagi <head> tegi orasida beriladi. Bunda yaratilgan stillar shu sahifaga tegishli bo'ladi, bu degani faqat shu sahifada ishlatilish mumkindir.

```
<head>
```

```
<style type = "text/css">
```

```
A { text-decoration: none; }
```

```
</style>
```

```
</head>
```

Navbatdagi turi, bu har bir element uchun alohida teg ichida stil berib chiqishdan iborat. Misol uchun, <p> tegi ichida biror matn yozilsa, shu matn uchun teg ichida alohida stil beriladi va bu stil shu teg uchun xususiy bo'ladi. Bu usuldan

foydalanishni maslahat bermiman, chunki bu usul kodlarni chalkash va tushunarsiz bo'lishiga olib keladi. Shoshilinch vaziyatlarda yoki stil qay tartibda namoyon bo'lishni ko'rib olish uchun bu usuldan foydalanishni maslahat beraman. Undan tashqari <style> tegi orqali css faylni import qilish mumkin bo'ladi.

```
@import: url(mystyles.css);
```

CSS stillarini ishlatishda, quyidagi guruhlash usullaridan foydalanish, tartibli web sahifa tuzishga olib keladi: - Kodlarni ixchamlash uchun, xar hil elementlar uchun bir hil tipdagi stillarni guruhlab ishlatish maqsadga muvofiqdir.

```
H1 {font-family: Verdana}
```

```
H2 {font-family: Verdana}
```

Yuqoridagi stilni guruhlab quyidagicha yozamiz.

```
H1, H2 {font-family: Verdana}
```

Guruhlashda bir hil element uchun bir necha stillarni birlashtirish mumkin.

```
H2 {font-weight: bold} H2 {font-size: 14pt} H2 {font-family: Verdana}
```

Barcha stillarni bittaga yig'amiz.

```
H2 {font-weight: bold; font-size: 14pt; font-family: Verdana;}
```

Ba'zi stillar bitta stil ichida berilishi ham mumkin.

```
H2 {font: bold 14pt Verdana}
```

CSS stillari bilan ishlaganda, element ichidagi elementlar ham o'zidan yuqori turgan element stilini qabul qiladi, ya'ni o'zidan oldingi element **ota** vazifasini bajaradi va o'z **farzandlariga** ham o'zida borini beradi. Misol uchun, <p>tegi ichidagi matn ko'k rangda yozilishi lozim bo'lsa

```
P {color: blue}
```

<p> tegi ichidagi tegiga tegishli bo'lgan matn ham ko'k rangda yoziladi.

<p> tegi ichidagi tegiga tegishli bo'lgan matn ham ko'k rangda yoziladi.

```
BODY {color: green; font-family: "Verdana"; background: url(direction.png) red; }
```

2.3. PHP – Server tomonidan dasturlash tili

PHP ning eng kuchli taraflaridan biri uning kengaytirila olinadigan yadrosi(tizimning boshqaruv qismi) bo'lib, bundan tashqari, ma'lumot

jamg'armalar bilan, turli protokollar va interfeyslar bilan birgalikda ishlash keng imkoniyatlari yaratildi. Muvaffaqiyatga erishishga ancha ahamiyatli fakt bu yangi tilni boyligi va ob'ektlarga mo'ljallangan dasturlashni qo'llay olishi.

PHP tili asosan quyidagi afzalliklarga ega:

1. an'anaviylik
2. oddiylik
3. samaradorlik
4. xavfsizlik
5. moslashuvchanlik

PHPning vazifasi serverni ma'lumotlar ombori bilan bog'lash (Apache+PHP+MySQL).

PHPda o'zgaruvchilar hamma dasturlash tilining asosidir. Bularga o'zgarmas sonlar, belgilar va boshqalar kiradi.

Misol qilib sonlarni olaylik. Ular butun sonlar, qoldikli sonlar bo'lishi mumkindir va yana ularni orasiga ikkilik, sakizlik, o'n oltilik sanoq sistemasidagi sonlar ham kiradi. Yoki belgilardan &, %, /, \$, # va yana harflar ham kiradi.

Agarda biz qandaydir o'zgaruvchiga nimadir belgilab berish niyatimiz bo'lsa unda biz quyidagicha yozishimiz shartdir:

\$bilim="kitob";

\$rang="qizil";


Operatorlar

Operatorlar	Ta'rifi
()	Qavs
new	Yangi, ob'yekt hosil qilish
! ~	Mantiqiy YO'Q
++ --	Bitta songa oshirish, kamaytirish
@	Hatolarni berkitish
/ * %	Bo'lish, ko'paytirish, qoldiq
+ - .	Qo'shish, ayirish, kesish
<< >>	Chapga, o'nga surish
< <= > >=	kichik, kichik va teng, katta, katta va teng
= = != = = = <>	Teng, teng emas, o'xshash, teng emas
& ^	AND, XOR, OR
&&	AND, OR
?:	uchlik operatori
= += *= /= .=	Belgilab berish operatorlari
%= &= = ^=	
<<= >>=	
AND XOR OR	Mantiqiy va, XOR, yoki

Xulosa qilib aytsak PHP dasturlash tili veb dasturlashda juda qulay til hisoblanadi.


2.4 MySQL – veb ishlanmalar uchun optimal MBBT sifatida

Ma'lumotlar bazasi lokal va masofaviy bo'lishi mumkin.



Ma'lumotlar bazasining struktura tuzilishi.


Lokal ma'lumotlar bazasi foydalanayotgan dasturiy ta'minoti bilan birga bitta kompyuterda bo'ladi. Bunday vaziyatda qurilayotgan axborot tizimlari lokal axborot tizimlarida qurilgan deb nomlanadi. Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash bir foydalanuvchi rejimida amalga oshiriladi.



⊙

⊙


⊙



Dastur va MB ning BDE orqali bog'lanishi.

Ikkita bir-birini tushuna olmayotgan odamlar tushunishlariga erishish uchun ular o'rtasiga tarjimon zarur bo'ladi. Dastur hamda ma'lumotlar bazasini ham bir-biriga bog'lash uchun BDE dan foydalanamiz.

Bunda dastur quyidagicha ishlaydi:



Dastur va bir necha MB ning BDE orqali bog'lanishi.

Fayl-server arxitekturasida ko'p hollarda foydalanuvchilari soni kam bo'lgan tarmoqlarda ishlatiladi. Bunday tizimlar ko'p hollarda Paradox yoki Dbase bazalari asosida quriladi. Fayl-server arxitekturasida quyidagi kamchiliklarga ega:

Foydalanuvchi har doim lokal ko'chirish bilan ishlatadi. Agar jadvallarda o'zgarish bo'lsa lokal nusxani ma'lumotlar bazasini uzatib, qayta qabul qiladi. Buning natijasida tarmoqda aylanma ma'lumotlar oshib ketadi va yuklanish yuzaga kelib qoladi.

Ikkinchi kamchiligi shundaki har bir kompyuterni o'zidagi ma'lumotlar bazasini lokal nusxasi mavjud bo'lgani uchun unda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar boshqa qolgan foydalanuvchilarga bir o'z vaqt noma'lum bo'lib turadi.

Ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni qayta ishlash operatsiyalari

Ma'lumotlar bazasi ma'lumotlarini qayta ishlashga quyidagi operatsiyalar kiradi:

- Ma'lumotlar bazasini yaratish.
- Ma'lumotlar bazasini tartiblash.
- Ma'lumotlar bazasini o'zgartirish.
- Ma'lumotlar bazasini fayl ko'rinishida qayta ishlash.
- Ma'lumotlar bazasini yangilash.
- Ma'lumotlar bazasidan ma'lumotlarni qidirish.
- Ma'lumotlar bazasini diskdan yuklash.
- Ma'lumotlar bazasidan foydalanib hisobotlar yaratish va bosmaga chiqarish.

MySQL ma'lumotlar bazasi

MySQL - relyatsional ma'lumotlar bazasini boshqarish sistemasi bo'lib, turli operatsion sistemalarda qo'llanishga moslashtirilgan Open-Source-mahsulot hisoblanadi va ko'pchilik dinamik web-sahifalar uchun asos hisoblanadi. MySQL Shvetsiyadagi MySQL AB firmasi tomonida yaratilgan bo'lib, 2008 yilning fevralida Sun Microsystems tomonidan sotib olingan va endlikda dastur kodini yaratishgda ushbu firma javobgar. MySQL Server ochiq, ya'ni tekin dasturiy ta'minot bo'lib, General Public License himoyasidadir. MySQL AB/Sun firmasi dastur kodiga mualliflik huquqiga egaligi sababli, ushbu dasturiy ta'minotning kommerzial turi ham bor. MySQL nomining kelib chiqishi aniq emas. 1996 yildan beri ko'plab biblioteka va tool (vosita)lar nomi oldida My prefiksi qo'yila boshlangan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa firmani tashkil qilganlardan biri hisoblanuvchi Monty Wideniusning qizi ismidan va SQL, ya'ni Structured Query Language (Strukturaviy so'rovlar tili) birikmasidan tashkil topgan. Unix, MacOS X va Linuxdan tashqari, MySQL Windows, OS/2 va i5/OS (avvalgi OS/400) uchun ham moslashtirilgan. Windows uchun esa ba'zida ayrim cheklanishlar uchraydi. MySQL ko'pincha web-servis uchun ma'lumotlarni saqlashda qo'llaniladi, webserver Apache va PHP bilan birgalikda ishlatiladi. MySQL hozirda 6.000.000 dan ortiq foydalanuvchilar va kuniga 35.000 dan ortiq download qilinadigan dunyoning eng mashhur ma'lumotlarni boshqarish sistemasidir.

MySQL ning asosiy funksiyalari quyidagilar:

mysql_connect()

Funksiya MySQL serveriga bog'lanish uchun ishlatiladi.

Int mysql_connect (string host [:port] [, string login] [, string passowrd])

misol:

mysql_connect("localhost", "panda", "beast") or die ("MySQLga boglanishda xatolik mavjud");

<?

\$link=mysql_connect("localhost", "panda", "beast") or die ("MySQLga boglanishda xatolik mavjud");

?>

mysql_select_db()

MySQL bazasini tanlanishda foydalaniladi.

Int mysql_select_db(string bazani_nomi [, int ulanish_korsatgichi])

misol;

<?

mysql_connect("localhost", "panda", "beast") or die ("Mysqlga boglanishda xatolik mavjud");

mysql_select_db("emahalla");

?>

mysql_close()

Mysql bilan bog'lanishni yopishda foydalaniladi.

Int mysql_close([int ulanish_korsatgichi])

<?

mysql_connect("localhost", "panda", "beast") or die ("Mysqlga boglanishda xatolik mavjud");

mysql_select_db("emahalla");

print "Boglanishga erishildi";

mysql_close();

print "Boglanish tugadi";

?>

mysql_query()

Funksiya bazaga murojaatlarni ta'minlab berishda foydalaniladi.

Int mysql_query(string query [, int ulanish_korsatgichi])

query SQL tilidagi buyruqlar yoki buyruqlar to'plami bo'ladi.

mysql_affected_rows()

Agarda biz bazaga yozsak mysql_query() bilan va biz qancha qatorlarni o'zgarganini bilmoqchi bo'lsak unda shu funksiya bizga yordam beradi.

Int mysql_affected_rows([int ulanish_korsatgichi])

misol:

<?

```
mysql_connect("localhost", "panda", "beast") or die ("Mysqlga boglanishda xatolik mavjud");
```

```
mysql_select_db("emahalla");
```

```
$query="update people set name='Alijon' where age=23;
```

```
$result=mysql_query($query);
```

```
print "Ozgargan qatorlar soni:", mysql_affected_rows();
```

```
mysql_close();
```

?>

Shunda oynangizga bitta o'zgargan ya'ni "Ozgargan qatorlar soni:" hamda natija chiqadi.

mysql_num_rows()

Funksiyamiz Select komandasidan qaytgan qatorlar sonini beradi.

Int mysql_num_rows(int qaytish_raqami)

Qaytish raqami oldindan ishlatilgan query'ning raqamidir.

Misol:

<?

```
mysql_connect("localhost", "panda", "beast") or die ("Mysqlga boglanishda xatolik mavjud");
```

```
mysql_select_db("emahalla");
```

```
$query="select name from people";
```

```

$result=mysql_query($query);
print "Tanlangan qatorlar soni:", mysql_num_rows($result);
mysql_close();
?>

```

Shunda oynamizga qancha qatorlar tanlangan bo'lsa shularni sonini qaytaradi.

mysql_result()

Bu funksiya mysql_query() bilan birgalikda ishlatiladi va Select komandasi uchundir. Select dan qaytgan ma'lumotni ya'ni so'rovni natijasini qaytaradi.

Int mysql_result(int qaytish_raqami, int yozuv [, mixed joy])

misol:

```

<?
mysql_connect("localhost", "panda", "beast") or die ("Mysqlga boglanishda
xatolik mavjud");
mysql_select_db("emahalla");
$query="select * from people";
$result=mysql_query($query);
$x=0;
while($x<mysql_num_rows($result)):
$name=mysql_result($result, $x, "name");
$email=mysql_result($result, $x, "email");
$age=mysql_result($result, $x, "age");
print "$name $email $age";
print "<br>";
$x++;
endwhile;
mysql_close();
?>

```

Shunda oynamizga ism email age ketma ket chiqadi.

mysql_fetch_row()

mysql_result() kabidir faqat farqi shundaki birdaniga bitta qatorni hammasini

o'zgarmasga yozadi.

Array `mysql_fetch_row(int qaytish_raqami)`

keling misolda ko'raylik.

<?

```
mysql_connect("localhost", "panda", "beast") or die ("Mysqlga boglanishda xatolik mavjud");
```

```
mysql_select_db("emahalla");
```

```
$query="select *from people";
```

```
$result=mysql_query($query);
```

```
while($row=mysql_fetch_row($result)):
```

```
print "$row[name] $row[email] $row[age]";
```

```
print "<br>";
```

```
endwhile;
```

```
mysql_close();
```

?>

Yuqoridagi funksiya kabi chiqaradi.

mysql_fetch_array()

Aynan `mysql_fetch_row()` kabidir, ammo farqi shundaki bu funksiyada siz o'zgarmaslarga qanday yozishni belgilaysiz, ya'ni ismi bilan, yoki raqamli yoki ham raqam ham ismi bilan yozishi mumkin.

Array `mysql_fetch_array(int qaytish_raqami [, int index_turi])`

`index_turi: MYSQL_ASSOC` – ismi kabi yozish (`$row["name"]`)

`MYSQL_NUM` – raqamli (`$row[1]`)

`MYSQL_BOTH` – ikkalasi

agarda hech qaysisini ko'rsatmasangiz unda `MYSQL_ASSOC` ni ishlatadi.

Misol:


<?

```
mysql_connect("localhost", "panda", "beast") or die ("Mysqlga boglanishda xatolik mavjud");
```

```
mysql_select_db("emahalla");
```

```
$query="select *from people"; $result=mysql_query($query);  
while($row=mysql_fetch_array($result)): print "$row[name] $row[email]  
$row[age]"; print "<br>"; endwhile; mysql_close(); ?>
```

Mahalla fuqarolari yig'ini muassalari uchun MB ko'rinishi.



III BOB. MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

1. Ergonomika tushunchasi.

Toliqish profilaktikasida so'ngi vaqtda ergonomika degan nom bilan yangi yunalish vujudga keldi, ergonomika grekchadan olingan bo'lib ergon –ish, nomos –qonun degan ma'noni anglatadi. Bu fan mehnat unumdorligini oshirish, soglikni muxofaza qilish, ishda xafsizlikni va qulay sharoitni ta'minlash maqsadida odamni ishga moslashtirish uchun boshqa qator fanlarning ma'lumotlaridan foydalanishga asoslashgan. Mashinalar va boshqa uskunalarni, jixozlarni ixtiro qilishda, ish joylarni uyushtirish va rejalashtirishda fiziologik va psixologik talablarga rioya qilish ergonomikaning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mashinalarni ixtiro qilishda ishlayotgan kishining ortiqcha xarakatlardan xoli etish, turli noqulayliklarga barxam beradigan choralar ko'zda tutilishi kerak. Chunonchi, ozgina engashib ishlashda quvvat sarfi atigi 22 foizga oshsa, ko'prok engashib bajaradigan ishda 45 foizga oshadi. Boshqaruv qo'l va oyoq bilan amalga oshiriladigan xollarda odamning qo'l va oyoqlari uchun mo'ljallangan ish maydonining samarali o'lchamlarini xisobga olish lozim.

Kuchni tejash tamoyiliga amal qilish xam muximdir. Odam ko'p kuch sarflanadigan ishni uzoq vaqt mobaynida bajara olmaydi. Asboblar, boshqa turli boshqaruv uskina dastasini qulay xajm va shaklda yaratish yuli bilan xam kuchni tejashga erishiladi. Toliqish profilaktikasida samarali ish vaziyati va to'g'ri ko'rilganligi katta ahamiyatga ega. Muskullarning eng past darajadagi tarangligi xisobiga yuzaga keladigan erkin, odamdan kuch talab qilmaydigan xolatga oqilona vaziyat deyiladi. Gavdani tik yoki bir oz egilgan xolatida shunday bo'ladi. Ishni o'tirgan, tik turgan xolatda, ba'zan esa gox o'tirib, gox tik turib bajarish mumkin. O'tirish vaziyatidan statik xarakatlar kamroq bo'lsada, ish vaqtidagi xarakatlar ko'lami va sarflanadigan kuch unchalik katta bo'lmaganda qo'llash mumkin.

O'tirib ishlash vaziyatida statik xarakatlarni pasaytirish uchun ish jixozlari: stol, stul, oyoklar uchun tirgakning fiziologik jixatdan asoslangan loyixalaridan foydalaniladi. Stulning baland-past bo'lishini boshqarib turish, suyanchigi, tirsakni

qo'yish uchun moslamasi borligi, o'tirib ishlash vaziyatidagi charchoqni kamaytiradi. Qator xollarda ishchi ro'parasidagi ish yuzasini yarim doira qilib qirqish, uni qiya qilib qo'yish maksadga muvofik. Fiziologik jixatdan o'tirib tik turib ishlash vaziyati g'oyat maksadga muvofik, u ishchiga o'zi uchun qulay vaqtni tanlash, qon dimlanib qoladigan soatlarda qon aylanishini tiklash imkonini beradi. Bir maromdagi ishlarini bajarishda bunday vaziyat ayniqsa foydali, chunki vaziyatni o'zgartirish ruxiy jixatdan xilma-xillikni vujudga keltiradi.

3.2. Ergonomika elementlari va ish joyini tashkil etish

Ergonomika inson ish jarayonidagi harakatdir. Ergonomika ishlab chiqarish jarayonida ishchining charchamasdan, mehnat qobiliyati pasaymagan va sog'liqini yo'qotmagan xolda eng yuqori ish unumdorligiga erishishda funkstional imkoniyatlarni o'rganuvchi fandir. U nazariy fan bo'lib, fiziologiya psixologiya antropometriya, mexnat gigiyenasi insonning ish faoliyatini kompleks ravishda qamrab oladi.

Qulay ish joyini tanlash.

Xozirgi paytda yangi texnologik jarayon kichik korxonalarning yangi mashina texnika uskunalar albatta, GOST mashulot sifatiga binoan bo'lishi, ergonomik ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan talablarga javob berishi kerak.

Ish joyida jixoz va uskunalarining texnika uskunalarining noto'g'ri joylashishi, ularning shakli, rangini noto'g'ri tanlanishi ishchini charchatadi, to'g'ri joylashtirilganda esa aksincha, ish unumdorligini oshiradi. Ish joyini balandligi xam muxim ahamiyatga ega. Odatda u 1000-1600 mm oralikda bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Bundan tashkari, ko'zning imkoniyati doirasini xam xisobga olish kerak. Gorizontal bo'yicha ko'rish burchaklari quyidagicha:

- 18 gradus- ko'zning ish joyida oniy ko'rish burchagi;
- 30 gradus- ko'zning ish joyida samarali ko'rish;
- 120 gradus- ko'zning bosh qimirlatmay ko'rish;
- 220 gradus-ko'zning bosh burganda ko'rish burchagi;
- Vertikal bo'yicha ko'rish burchagi 55-60 gradusni, pastni ko'rish burchagi esa 70-75 gradusni tashkil etadi. Bunda ham samarali ko'rish burchagi esa 30-40

gradusni tashkil qiladi.


Operatorning charchashini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar.

Zamonaviy avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishda inson operatorning psixologiya va fiziologiyasi asosiy rolni egallaydi. Ishlab chiqarishda mehnat sharoitini yaxshilash va ilmiy asosda aniqlash, mehnatni to'g'ri ishlash maromini ta'minlash, mehnat tartibi va dam olishni tashkil qilish zarur.

Display bilan ishlaydigan EXM operatorlarida asosan, bosh og'rishi, bel, yelka, orqa og'rishi, ko'z charchashi kuzatiladi. Mehnat sharoitini yaxshilash chora-tadbirlar orasida eng asosiysi ishchining ish xolati va ish maromidir.


Ish xolati. Ish xolatini yaxshilashda operatorning ish o'rni asosiy ahamiyat kasb etadi. Ishchi stol qattiq xolda bo'lishi kerak, chunki kerakli paytda ekranni, klaviaturani, dokumentlarni siljitish imkonini bersin. Ishchi stoli va o'tirgichlar bir-biriga mutanosib bo'lishi kerak. O'tirgichni poldan balandligi 42-55 sm bo'ladi. Ishchi kreslo ish davomiyligiga qarab tanlanadi: o'zak vaqt davomida ishlansa – og'ir, kattakon kreslo, qiska vakt davomida yengil kreslodan foydalansa bo'ladi, chunki ularni joyidan oson siljiriladi. Kresloning tag qismi 5 ta tayanchdan iborat bo'lishi zarur. O'tirgichlar qulay bo'lishi kerak, uning o'lchami 40x40 sm.kv. dan oshmasligi zarur (1-rasm).

Mehnat sharoitini yaxshilashni yana bir chora-tadbiri bu operatorning ish maromidir.



1-rasm Operator ish o'rniga qo'yilgan talab

Ish maromi. Displeylar bilan ishlaydigan operatorni ish maromini yo'lga qo'yish mexnat xavfsizligini va charchashni kamaytirishni oldini oladi. Ish kuni mobaynida ishchining ishlash qobiliyati birdan o'zining eng katta qiymatiga erisha olmaydi. Operatorning displey bilan ishlaganda ish maromi xar 2 soatda yarim soat dam olishi yoki 1 soatda 15 minut dam olib turishi lozim. Bu qiska-qiska dam olish ish qobiliyatini yaxshilash va charchashni oldini oladi. Bundan tashqari, operator va mashina o'rtasidagi masofa, shu masofaga binoan ekrandagi yozuvlarni kattaligi, ekran yorqinligi xam shular jumlasidandir. Ko'z va ekran oraligi 60-80 sm, kattaligi esa 3-4 mm, optimal kenglik va balandlik 3:4, belgi orasidagi masofa esa uning bo'yidan 15-20 % bo'lishi kerak (2.-rasm).



2.-rasm. Operatorning kompyuterda ishlash paytidagi talab

Ish joyini rejalashda stolda joylashgan displey va klaviatura turishiga ko'ra qo'l xolatini xam nazarda tutish kerak.

Bitiruv malakaviy ishi tayyorlangan xonadagi EXM ning klaviaturasi ekrandan aloxida joylashgan bo'lib, ish joyi shartlariga muvofiq keladi.

Operator ish o'rnida displey joylashtirilayotganda ko'z va boshning xarakati aniqlanadigan ko'rish maydoni xam ko'zda tutiladi. Operator o'z ish joyini shunday ta'minlashi kerakki, bunda ekran o'rtada, yozilayotgan dokument esa chap yonda yoki maxsus joylatirgichlarda turishi kerak. Klaviatura nisbatan tekis turadi, o'rta qatordagi klavishalar balandligi 2.5 - 5.0 sm . Klaviaturaning o'rta qismidan stol qirg'ogigacha bo'lgan masofa 16 sm. EXMlar ish davomida o'zidan turli rentgen nurlarini chiqaradi. Shuni hisobga olib, ishlash davomiyligini qisqartirish kerak, shuningdek, maxsus ximoya ekranlaridan foydalanish kerak.

Mehnat sharoitini yaxshilash maqsadida tashkiliy, gigienik, texnikaviy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va ishchi-xizmatchilar orasida menat gigienasi norma, qoidalariga rioya etish bo'yicha tashviqot ishlari olib boriladi.

Ishlab chiqarish sanitariyasi sanitariya-texnologik, tashkiliy tadbirlarni ifodalaydi va ishlab chiqarishda sog'lom mehnat sharoitlarini ta'minlaydi. Shu maqsadda ishchi-xizmatchilarning salomatligiga ta'sir qiluvchi texnologik jarayon va uskunalardagi kamchiliklarni yo'qotish yo'llarini ishlab chiqardi. Buning uchun sanoat korxonalarida texnika tarakkiyoti yutuqlaridan unumli foydalanishni, jarayonlarni olisdan boshkarish va ishchilarni zararli muxitda ishlashlarining oldini olishni, uskunalarni, qurilmalarni ochik maydonda joylashtirishni, xavo tarkibini tekshirib turishni, qo'l mehnatini talab qiladigan ishlarda imkoni boricha mexanizastiya vositalari va zamonaviy uskunalarni qo'llashni, ximoya vositalaridan foydalanishni zarur deb xisoblaydi.

Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlashda ergonomikaning xam ahamiyati katta. Ergonomikada insonning mehnat faoliyati jarayonida qulay, xavfsiz sharoitlarni yaratishga, mehnat unumdorligini oshirishga boglik bo'lgan imkoniyatlar o'rganiladi.

Bajarilayotgan turli jarayonlar va unga bog'liq bo'lgan uskuna, qurilmalar doirasida axborotni yetkazuvchi-ko'rsatuvchi moslama-mashina modeli bulsa, operator murakkab tizimda bulsa xam, boshqarish ishlarini amalga oshiradi. Bu vazifani bajarish uchun shunday axborot modeli yaratilishi kerakki, bu model o'z vaqtida mashinaga taallukli ta'rifni berishi, natijada operator toliqmasdan, fikrlab va

e'tibor bilan axborotni xatosiz qabul qilib qayta ishlashi lozim. Murakkab xisoblangan vazifani yechish operatorning xavfsizligiga, aniq sifatli ishlashiga, mehnat unumdorligiga, shuningdek insonning psixofiziologik imkoniyatlarini axborot modeliga mos bo'lishiga bog'likdir.

Biofizik moslik operatorning ish qobiliyatini, normadagi fiziologik xolatini ta'minlaydigan atrof-muxitning yaratilishini ifodalaydi. Insonning kuchi va energetik qobiliyati ma'lum chegaraga ega.


Shuning uchun ish jarayonida boshqarish tizimida charchash maqsadga muvofik bo'lmagan oqibatga olib kelishi mumkin. Energetik moslik esa operatorning optimal imkoniyatlari asosida talab qilinadigan kuch, sarflanadigan quvvat, xarakatning anikligi va tezligi bilan mashinani boshqarilishidagi kelishuvni ifodalaydi.

Fazoviy-antropometrik moslik inson tanasi o'lchami, tashki fazoning ta'sirli imkoniyatlari, ish jarayonida operatorning vaziyati, gavdaning turishi xisobga olinishini ifodalaydi. Vazifaning to'g'ri xal qilinishida ish joyi xajmi, operator xarakatlanadigan masofa, balandlik, boshqaruv pultigacha bo'lgan oraliq va boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi.

3.3 Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda xavfsizlik asoslari

Ma'lumki kundalik hayotimizni shaxsiy kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Shaxsiy kompyuterlar hozirgi kunda xayotimizni barcha tarmoklariga kirib kelgan va muvaffakiyatli qo'llanilmokda. Ammo xar bir qurilmadan foydalanishda xavfsizlik talablariga rioya qilish bu xayot talabi. Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda xam xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bu kishi organizmini turli xavfli omillardan zarar topishi yoki jaroxatlanishini oldini oladi.

Eng avvalo kompyuterlardan foydalanishda ular uchun sanitariya va gigiena




1-расм. Шахсий компьютёрларни жойлаштириш тартиби

talablariga mos xolda bino tanlash va ularni yong'in xavfsizligi vositalari, birinchi tibbiy yordam qutichalari bilan jiozlash maksadga muvofiqdir.


Kompyuterlarni belgilangan masofada joylashtirish, ularda hosil

bo'ladigan elektrostatik va elektromagnit maydonlarini foydalanuvchilarga ta'sir xavfini kamaytiradi binolarga kompyuterlarni joylashtirishda gigiena talablariga asosan har bir foydalanuvchi shaxs uchun eng qulay ish xududini ta'minlanish talabi hisobga olinishi shart, ya'ni bir kishi uchun ish joyining xajmi elektron nurlanishli monitorli kompyuterlar uchun 20 metr kub va suyak kristal monitorli kompyuterlar uchun 15-20 metr kubdan kam bo'lmasligi kerak.



2-расм. Шахсий компьтердан фойдалнишда иш ўрни


Kompyuterlarni shunday joylashtirish kerakki, bunda kompyuter monitori yuzasida tabiiy yoki sun'iy yorug'lik aks ta'siri bo'lmasligi lozim, aks xolda bu xolat kishi ko'zini tez toliqishiga va ko'rish qobilyatini pasayishiga olib keladi. Sun'iy yoritgichlar kompyuter monitorini yuza qismiga nisbatan chap yoki orqa qismida o'rnatilishi va kompyuter manitorining balandligi ko'zning gorizontal ko'rish kismidan balandda o'rnatilgan bo'lishi kerak.



3-расм. Шахсий компьтерда ишлашда иш ўрнини тўғри ёритиш

Kompyuter stolida o'rnatilgan yoritgichning yorug'lik miqdori 300-500 lk va kompyuter monitorining ekranini yorug'lik miqdori 300 lk dan va yoritilgan quvvati 35 kd/metr kv dan yuqori bo'lmasligi lozim. Ish joylaridagi yorug'likning miqdorini amalda qo'llaniladigan yu-116 lyuksametr lar orkali o'lchash mumkin.

Kompyuterlarni o'rnatishdan oldin barcha elektr o'tkazgichlar xolatini tekshiring va ulardan ochik joy bo'lishiga yo'l qo'ymang va elektr tokidan jaroatlanishni oldini olish maksadida keltirilgan sxema asosida erga ulang.




4-расм. Шахсий компьютерни электр тормағида қўшишда ерга улаш схемаси

Kompyuter monitorini va proressorini xavo almashuvchanlik tizimiga xavoning erkin almashishi, issiklik manbasidan uzak masofada tutish, kompyuter ish samaradorligini va ishonchliligini oshiradi. Tizim va elektr tarmogi o'tkazgichlarini o'zaro ulashda ularni o'ralab qolishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

Ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri, bu xonalarda mikroiklim sharoitni qulayligi, ya'ni ish joyidagi havoning xarorati nisbiy namligi va shamolning harakat tezligining GOST 12.001.005.-86 talabdariga mos kelishi. GOST 12.001.005.-86 ga asosan kompyuterlar o'rnatilgan xonada havoning xarorati 21...25 gradus, nisbiy namlik miqdori 40-60

foiz va shamolning xarakat tezligi 0,1 metr/sekund oshmasligi va tushmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya hamda Sog'likni saqlash vazirliklari tamonidan belgilangan talablar asosida, kompyuterlardan professional foydalanuvchilar ishga kirishdan oldin va davriy ravishda medistina ko'riklaridan o'tishlari shart. homilador va emizakli farzandi bor ayollar uchun kompyuterda ishlash zararli.



5-расм. Иш ўрни жихозлари кўрсаткичлари

Ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish, kishilarni turli kasbiy kasallanishlarga yo'li kishini oldini olishda asosiy omil bo'lib xisoblanadi. Gigienik talablarga asosan kompyuterdan foydalanuvchilarning monitor va ko'z orasidagi masofa, klaviaturaning to'g'ri joylashishi, ish stolining kengligi, oyok ostidagi zinachaning me'yorida bo'lishi hamda aylanma va vertikal xolati o'zgaradigan o'tirgich ishga qancha qulaylik yaratadi.

Shunday qilib, ishlab chiqarishda xavfsiz va zararsiz mehnat sharoitini yaratish har bir raxbar va mas'ul xodimning vazifasi bo'lib, bunda nafaqat kishilarga sog'lom ish muxiti yaratiladi, balki ishlab chiqarishda samaradorlikni oshishiga olib keladi

Xulosa

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi natijasida barcha soxalarga kirib bordi. Hozirda har bir sohada foydalanilayotgan ma'lumotlar, hisobotlarni axborot texnologik resurslardan foydalanish orqali ish samaradorligi oshirilmoqda.

Kompyuter yordamida ish yuritishda samarali va yangi omillaridan biri avtomatlashtirilgan ish o'rinlari hisoblanadi. Xozirgi kunda yaratilayotgan avtomatlashtirilgan ish o'rinlarida mutaxassisning ishiga doir axborotlar, ko'rsatmalar tushunarli va ixcham ko'rinishda ekranda berib boriladi.

Mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ham yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimda to'laqonli sheriklik o'rnini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish imkoniyatlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligini oshishida qanday rol o'ynashiga bog'liq. Davlatimiz rahbarining 2013-yil 27-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori axborot sohasini takomillashtirishda muhim omil bo'layotir. Mazkur qarorga muvofiq, 2013-2020-yillarda O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Mamlakatimizda davlat organlari veb-saytlari va hukumat portali orqali interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni yanada kengaytirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish mustahkamlanmoqda.

Mahalla fuqarolar yig'ini avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish masalasini hal qilish ancha murakkab ob'ektlar qatorida turadi. Muassasa xodimlari fuqarolar haqidagi ma'lumotlar qog'ozdaligi, har safar fuqarolar, xonadonlar ma'lumotlari yig'ilgan jild to'lgach yoki yil ohiridan keyin yangi jild ochilib yangidan ma'lumotlarni kiritishilishi zaruriyati tug'ilmoqda. Bu esa, ma'lumotlar to'liqmaslikka, vaqt o'tishi bilan ma'lumot yo'qolib ketishi

ehtimolligi mavjudligi keyinchalik zaruriy fuqaro ma'lumotlari topilmasligi havfi mavjuddir

Shu sababli, bitiruv malakaviy ishida tizimlar, ularni yaratish texnologiyalari va vositalarini o'rganib chiqdim. Bular misolida Mahalla fuqarolar yig'ini avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratishda My SQL ma'lumotlar bazasi, Java script va PHP dasturlarini o'rganib chiqildi. "Mahalla fuqarolar yig'ini avtomatlashtirilgan axborot tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi.

- Mahalladagi ho'jaliklarni ro'yhatdan o'tkazish, izlash, ular xaqidagi ma'lumotlarni o'zgartirish amallarni bajara olishimiz mumkinligi
- Mahalladagi ho'jaliklar borasidagi ya'ni manzili, xonalar soni, ho'jalik qayd nomeri, ho'jalik er maydoni, uy baxosi, qurilgan yilidan tortib tomorqa er maydonigacha bo'lgan ma'lumotlarni tizimga kiritish orqali keyinchalik izlash hamda yuqoridagi ma'lumotlar ustida boshqa amallarni amalga oshirish imkoni borligi tufayli vaqt ancha tejaladi.
- Ho'jaliklarni elektr, suv hamda gaz bilan ta'minlanganligi ifodalash mumkinligidan, kommunal hizmatlarni borasidagi ko'shimcha hisobotlarni yaratish mumkin.
- Ho'jaliklardagi uy hayvonlari, yirik shoxli qora moldan tortib parrandalar sonini ham ho'jalik borasidagi ma'lumotlar yoniga qiritish mumkin.
- Bir necha oila ho'jalikda yashashi mumkinligini xisobga olib ho'jalikda yashovchi fuqarolar haqidagi to'la ma'lumotlarni tizimda saqlash, zarur fuqaroni izlash u haqidagi barcha ma'lumotlarni tizim orqali topish mumkin.
- Oila a'zolari, oila boshlig'i, ular orasidagi o'zaro qarindoshchilik nisbatlarini hisoblashni avtomatlashtirilgan bo'lib, ya'ni oila a'zosini oila boshlig'iga nisbatan qarindoshlikini kiritilsa, oila a'zolarini bir-biriga o'zaro qarindoshlik nisbatini tizim o'zi tahlil qiladi.
- Oila a'zolaridan kim nafaqada, qaerda o'qiyapti yoki qaerda kim bo'lib ishlayotganligi, hozirda qaerdaligigacha bo'lgan ma'lumotlarni saqlash mumkin.

- Oila a'zosi uchun ma'lumotnoma kabi hujjatlarni tizim orqali yaratish mumkin. Bunda faqatgina qaysi oila a'zosi va qay muassasa so'rayotganini kiritilsa tizimni o'zi ma'lumotnomani tayyorlab beradi.
- Mahalla fuqaro yig'inida har bir oila, har bir ho'jalik, bo'yicha haftalik, oylik, chorak hamda yillik hisobotlarni olish mumkin.

Bu tizim fuqaro yig'inida fuqarolar bo'yicha hech qanday qiyinchiliklarsiz, ma'lumotlarni izlash, kiritish, o'zgartirish qabi amallarni tez bajarish mumkin.

Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari fuqarolar yig'iniga tadbiq etish ma'lumotlar markazlashgan xolda boshqarish osonlashtirish, ularni so'rlagan joyga tez yuborilishi, axborotning sifatiga, mehnatning harakteri va sharoitiga ham ijobiy ta'sir etadi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Alimov S. "PHP davrasida" Toshkent 2006. – 85 b.
2. Котеров Д. В. «Самоучитель PHP4» БХВ-Петербург, 2001. — 572 с
3. Кузнецов М. В. «PHP 5 на примерах» БХВ-Петербург, 2005. — 577 с
4. Мазуркевич А. М. «PHP настольная книга программиста» Минск 000 Новое Знание 2003 – 480 с.
5. Орлов А.А..«PHP полезные приемы»
Горячая линия – Телеком, 2004. – 225 с
6. Томсон Лаура «Разработка Web-приложений на PHP и MySQL»
ДиаСофтЮП, 2003. — 672 с
7. Энди Шафран «Создание Web страниц» Самоучитель , Питер, Москва
2000
8. Лаура Томсин и Люк Веллинг «РАЗРОБОТКА ВЕБ – ПРИЛОЖЕНИЙ
НА PHP И MySQL», Москва, Санкт-Петербург ,2003


Internet tarmog'idagi manbalar:

1. www.google.co.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.library.tuit.uz/konspekty.html
4. habrahabr.ru

ILOVA



Tizimga kirish qismi. Tizimga kirish uchun login hamda parol zarur bo'ladi. Bu orqali tizimning havsizligi ta'minlanadi



Tizim bosh qismi bo'lib, bu yerda izlash qismi, navigatsiya qismi hamda mahalla mb da mavjud ho'jaliklar ro'yhatini ko'rish mumkin.

localhost/hotel/index.php x localhost/hotel/hotel.php x Новая вкладка x Components - Materializ... x Темирчилар маҳалла x

localhost/emahalla/emahalla/house/newhouse.php

Бош саҳифа x Ҳўжаликлар x Ҳисоботлар x Статистика x Архив x

Админ x

Темирчилар маҳалла

Янги ҳўжаликни тизимга киритиш

Ҳўжалик бошлиғи

| | | | | | |
|-----------------|--|--------------------------|--|----------------|----------------------------|
| Фамилияси:* | <input type="text"/> | Исми:* | <input type="text"/> | Отасини исми:* | <input type="text"/> |
| Жинси | Эркак ☒ Аёл ☐ | Туғилган вақти: | 01 <input type="text"/> Январ <input type="text"/> 1930 <input type="text"/> | Миллати | Ўзбек <input type="text"/> |
| Маълумоти | <input type="text"/> | Битказган(ўқиётган жойи) | <input type="text"/> | | |
| Ишлаш жойи: | <input type="text"/> | Лавозими: | <input type="text"/> | | |
| Паспорт серия:* | <input type="text"/> № <input type="text"/> | Ким томонидан берилган:* | <input type="text"/> | | |
| Берилган вақти: | <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> | Амал қилиш муҳлати: | <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> | | |
| Нафақада | ☐ | | | | |
| Ҳозирда қаерда* | <input type="text"/> | | | | |

Ҳўжалик бўйича маълумотлар

Yangi ho'jalikni tizimga kiritish qismi. Bu yerda zaruriy ma'lumotlar qatorida, ho'jalik boshlig'iga tegishli ma'lumotlardan tashqari ho'jalikka taaluqli ma'lumotlarni ham kiritilishi lozim.

localhost/hotel/index.php x localhost/hotel/hotel.php x Новая вкладка x Components - Materializ... x Темирчилар маҳалла x

localhost/emahalla/emahalla/house/showhouse.php?id=7

Бош саҳифа x Ҳўжаликлар x Ҳисоботлар x Статистика x Архив x Янги оила бошлиғи x Маълумотнома x

Админ x

Темирчилар маҳалла

Шариповлар оиласи 

Ҳўжалик ҳақидаги маълумотлар

| | | | | | |
|--------------|---------------------|-----------------|--------------------|---------------|----------|
| Манзили | Ҳўжалиқ қайд номери | 627 | Ҳўжалиқ ер майдони | 0.13 | |
| Хоналар сони | 9 та | Уй баҳоси | 0 сўм | Қурилган йили | 1970-йил |
| Девори | лой | Томорқа майдони | 0 | Бошқа ерлар | 0 |

Коммунал ҳизматларга эгалиги

Газ: ☒ Сув: ☐ Электр: ☒ Колонна: ☒

Уй ҳайвонлари

| | | | | | |
|-------------------------------------|------|---------------------------------------|------|--------------------------------|------|
| Йирик шохли қорамол | 0 та | Сигирлар | 1 та | Урчишга қуйилган букалар | 0 та |
| 1 ёшдан 2 ёшгача бўлган бузоқлар | 1 та | 2 ёш ва ундан катта бўлган гунажинлар | 0 та | Ургочи бузоқлар | 0 та |
| Хаммаси | 2 та | | | | |
| 9 ой ва ундан катта бўлган чучкалар | 0 та | 4 ойдай 9 ойгача она чучкалар | 0 та | шу жумладан ремонтбоп чучкалар | 0 та |
| Хаммаси | 0 та | | | | |

Tizimda mavjud ho'jaliklardan birining ma'lumotlar qismi.

localhost/hotel/index.phplocalhost/hotel/hotel.phpНовая вкладкаComponents - MaterializТемирчилар мақалла

localhost/emahalla/emahalla/house/showhouse.php?id=7

Бош саҳифаХўжаликларХўсботларСтатистикаАрхивЯнги оила бошлиғиМаълумотномаАдмин

| | | |
|----------------|------|---|
| Хаммаси | 0 та | |
| Отлар | 0 та | 3 ёш ва ундан катта бўлмаган биалар |
| Хаммаси | 0 та | |
| Ургочи куёнлар | 0 та | Катакларда сакланидиган муйнали ҳайвонлар |
| Хаммаси | 0 та | |
| Паррандалар | 8 та | Бошқа уй ҳайвонлари |

Оила аъзолар

| № | Исм шариф | Жинси | Миллати | Паспорт серия | Маълумоти | Оилада кимлиги |
|---|-------------------------------|-------|---------|---------------|-----------|-------------------------|
| 1 | Шарипов Раззоқ | Эркак | Ўзбек | | Олий | Хўжалик ва оила бошлиғи |
| 2 | Шарипова Ойхоним | Аёл | Ўзбек | | Ўрта | Хотини |
| 3 | Шарипов Хасанбой Раззоқович | Эркак | Ўзбек | | Ўрта | Ўғли |
| 4 | Жуманиёзова Кундузхон | Аёл | Ўзбек | | Ўрта | Келини |
| 5 | Раззоқова Сотима | Аёл | Ўзбек | | | Невараси |
| 6 | Раззоқова Шаринбой Хасан ўғли | Эркак | Ўзбек | | | Невараси |
| 7 | test test test | Эркак | Ўзбек | | Олий | Оила бошлиғи |

Ho'jalik haqida ma'lumotlarning pastki qismida shu ho'jalikda istiqomat qiluvchi oila a'zolar ro'yhati hamda ularga tegishli qisqa ma'lumotlar jadvalini ko'rish mumkin.

localhost/hotel/index.phplocalhost/hotel/hotel.phpНовая вкладкаComponents - MaterializТемирчилар мақалла

localhost/emahalla/emahalla/house/showhouse.php?id=7

Бош саҳифаХўжаликларХўсботларСтатистикаАрхивЯнги оила бошлиғиМаълумотномаАдмин

| | |
|----------------|------|
| Хаммаси | 0 та |
| Отлар | |
| Хаммаси | |
| Ургочи куёнлар | |
| Хаммаси | |
| Паррандалар | |

Оила аъзолар


| № | Исм шариф | Жинси | Миллати | Паспорт серия | Маълумоти | Оилада кимлиги |
|---|-------------------------------|-------|---------|---------------|-----------|----------------|
| 1 | Шарипов | | | | | |
| 2 | Шарипова | | | | | |
| 3 | Шарипов | | | | | |
| 4 | Жуманиё | | | | | |
| 5 | Раззоқова | | | | | |
| 6 | Раззоқова Шаринбой Хасан ўғли | Эркак | Ўзбек | | | Невараси |
| 7 | test test test | Эркак | Ўзбек | | Олий | Оила бошлиғи |

Раззоқова Сотима


Невараси

| | | | |
|----------------|------------|--------------------------|------------|
| Жинси | Аёл | Тутилган вақти | 1995-11-01 |
| Миллати | Ўзбек | Ким томонидан берилган | |
| Паспорт | | Амал қилиш муддати | 2014-01-01 |
| Берилган вақти | 1992-01-01 | Битказган(уқиётган) жойи | 7-синф |
| Маълумоти | | Ишдаги лавозими | |
| Ишлаш жойи | | | |
| Хозирда | | | |

Oila a'zo haqidagi to'la ma'lumot oynasi



Agarda oila a'zosini tizimdan o'chirmoqchi bo'lganingda shunday so'rovga duch kelasiz, ya'ni harakat aniqligini qayta tekshirish maqsadida.




Agarda ha tanlanganda tizimdan o'chirilish sababi ko'rsatilishi lozim. Ya'ni xatolik tufayli tizimdan o'chirilmogochimi, turmushga chiqqanligi sabablimi, boshqa mahallaga ko'chib ketmogochimi yohud vafot qilganligi sababmi va boshqalar.

| № | Ф.И.О |
|----|-------------------------------|
| 1 | Шарипов Раззоқ |
| 2 | Шарипов Раззоқ |
| 3 | Шарипова Ойхоним |
| 4 | Шарипов Хасанбой Раззоқович |
| 5 | Жуманиёзова Кундузхон |
| 6 | Раззоқова Сотима |
| 7 | Раззоқова Шаринбой Хасан ўғли |
| 8 | Хўжаев Шоназар Хаитбоевич |
| 9 | Саидова Мужсар ўруновна |
| 10 | Хўжаева Севара Шоназаровна |
| 11 | Хўжаев Жасурбек Шоназарович |
| 12 | Хўжаева Махбуба Шоназаровна |
| 13 | Хаитбоев Жўрабек Шоназар ўғли |

Qidiruv tizimi zarur bo'lgan fuqaroni izlab topishda kerak bo'lib, bu ish samaradorligini oshiradi.

| | |
|---|---|
| Темирчилар маҳалла | |
| Ҳисобот | |
| Хужалик | ☐ Коммунал
☐ Уй хайвонлари |
| Фуқаро | |
| Ҳисобот кўриниши
☐ Уй манзили ☒ Ҳўжалик бошлиғи ☒ Ҳўжалик қайд номери ☐ Ҳўжалик ер майдони ☐ Уй баҳоси ☐ Хоналар сони ☐ Қурилган йили
☐ Девори ☐ Томорқа майдони ☐ Бошқа ерлар
☐ Моллар ☐ Чучкалар ☐ Кўйлар ☐ Эчкилар ☐ Отлар ☐ Қуёнлар ☐ Паррандалар
☐ Исм-шарифи ☐ Туғилган вақти ☐ Маълумоти ☐ Битказган жойи ☐ Иш жойи ☐ Иш лавозими | |

Hisobot qismi orqali fuqarolar yig'ini muassasa xodimlari mahalladagi fuqarolar borasidagi, xo'jaliklar borasidagi ma'lumotlar asosida hisobotlarni tayyorlash zarur bo'lgan holatlarda shu bo'limga o'tib zaruriy mezonlar asosida hamda zaruriy ma'lumotlarni aks ettirish orqali hisobotlarni tayyorlashlari mumkin.




Темирчилар маҳалла

Умумий ҳисобот

| | | | |
|--|-------|----------------------------------|--------|
| Хонадонлар сони | 47 та | Фуқаролар сони | 400 та |
| Сувга эга хонадонлар | 33 та | Электрга эга хонадонлар | 34 та |
| Газга эга хонадонлар | 37 та | Колоннага эга хонадонлар | 11 та |
| Йирик шохли қорамол | 16 та | Сигирлар | 22 та |
| Урчишга қуйилган буқалар | 0 та | 1 ёшдан 2 ёшгача бўлган бузоқлар | 7 та |
| 2 ёш ва ундан катта бўлган гунажинлар | 13 та | Ургочи бузоқлар | 0 та |
| 9 ой ва ундан катта бўлган чучкалар | 1 та | 4 ойдай 9 ойгача она чучкалар | 0 та |
| шу жумладан ремонтбоп чучкалар | 0 та | Хамма зотли қўйлар | 5 та |
| 1 ёшдан катта бўлмаган ургочи туқлилар | 0 та | Эчкилар | 2 та |
| 1 ёшдан катта бўлмаган эчкилар | 0 та | Отлар | 5 та |
| 3 ёш ва ундан катта бўлмаган биялар | 0 та | Ургочи қуёнлар | 0 та |
| Катакларда сақланганидан муайяни ҳайвонлар | 0 та | Паррандалар | 246 та |

Statistika bo'limida mahalladagi mavjud mezonlarning umumiy statistikasini ko'rish mumkin.



Темирчилар маҳалла


Маълумотнома

Каерга

Кимга

Тайёрла

Fuqarolar uchun zaruriy hujjatlardan biri bo'lmish ma'lumotnomani tizimdagi ma'lumotlar asosida zarur bo'layotgan fuqaro uchun tayyorlash mumkin. Faqatgina qayerga hamda kimga maydonlarini to'ldirilsa xolos.




Темирчилар маҳалла

Маълумотнома


Берилди фуқаро Аллаберганова Дилноза га. Мазкур 1983 йилда тугилган. 'Темирчилар' маҳалла да яшайди.
Томорка майдони 0 га.
Аллаберганов Хайрулла - Онаси
Бобожонова Муяссар - Онаси
Аллаберганов Худойберган - Укаси
Ушбу маълумотнома ТАТУ Урганч филиали тақдим қилиш учун берилди.
'Темирчилар' фуқаролар йиғини раиси: К.Анназаров
'Темирчилар' фуқаролар йиғини котиби: А.Рузметова



Ma'lumotnoma so'ralgan fuqaro uchun hamda so'ralayotgan joy uchun tizimdagi ma'lumotlar asosida tayyorlandi. Bu ma'lumotnomani .doc kengaytmali faylga eksport qilish mumkin.



Eksport qilingan .doc kengaytmali fayl.



Mahalla borasidagi sozlamalar bo'limi